ISNN 3030-3907

2025/11
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

ISSUE/11 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar.Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI*:*
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Qayumov Abdurasul Shonazarovich
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Renessans ta'lim universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Asadova Ra'no Dilmuratovna
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro davlat texnika universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro davlat texnika universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro davlat texnika universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro davlat texnika universiteti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz, saytida keltirilgan.
Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi *Bozorova Feruza Jo‘raqulovna*	9
2	"Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi" *Abdurasulova Durdona Halim qizi*	17
3	Konstitutsiya-erkin va farovon hayot garovi. *Sultonova Oydina Ibroyimovna.*	23
4	Jamoada motivatsiya va ish unumdorligini oshirishda liderlik usullari *Sabirova Iroda Mirzaxamidovna*	27
5	Synthesis and rheological properties of water-soluble acrylamide–methacrylic acid copolymers for high-salinity water systems *Abduqodirov Elyorjon* *Mallaboev Odiljon* *Kalbaev Alisher* *Abdikamalova Aziza* *Mamataliyev Nozim*	36
6	Advancing methodological and mathematical approaches for modeling the decision-making process of the digital business ecosystems *Fayzullayev Shaxzod Shuxrat o‘g‘li* *Yuldashov Rahmon Husanovich* *Sharopov Ilhom Oybekovich*	44
7	Tabiiy gaz tarkibidagi kislotali gazlarning absorbsiya jarayonini o‘rganish *Xidirova Zulxumor O‘ralovna*	64
8	Mehnat xavfsizligi boshqarish usullarini tadbiq etish *Ashurova Laylo XXX*	68
9	Onkologik xastaliklar va ularni davolash profilaktikasi *Yaxshiboyeva Ruxshona Ixtiyorovna* *Egamberdiyeva Shoxsanam Azimovna* *Raxmatberdiyev Nurbek Anvarovich* *Barnoyev Dilshodbek To‘lqinovich* *Voxidov Alikul Melitoshevich*	74
10	«Многокомпонентные алюмосиликатные катализаторы для крекинга тяжелого вакуумного газойля» *Руфат Боймонов* *Шахноза Джалолова*	80
11	Suv tozalash inshootlarida suv loyqaliligi ko‘rsatkichini baholash tahlil qilish *Xoshimov S.N.* *Jetpisbayeva Sh.J.*	89
12	Sun’iy intellekt yordamida havo ifloslanishining real vaqt rejimidagi tahlili *Xolmatov Oybek Olim o‘g‘li* *Xakimov Akbar Faxriddin o‘g‘li*	101
13	Assessment of the oxidation level of fat released during the preparation of grilled chicken *Umurova Maftuna Madiyorovna* *Isabaev Ismoil Babadjanovich*	109
14	Переработка косточковых плодов с получением красящих пигментов *Шамсиев Рустам Халилович*	115
15	Ростостимулирующий действие дельта-эндотоксина bacillus thuringiensis на пшеницу и ячменя произростающих на территории узбекистана *Нормаматова Ф.С.* *Ташмухамедова Ш.С.*	121
16	Трикотажни ишлаб чиқаришда ҳосил бўладиган таранглик кучларини назарий таҳлили *С. Сапарова* *М. Мусаева*	130

ISSN 3030-3907

	М.М.Мирсадиков *М.Мукимов*	
17	Kombinatsiyalashgan po‘lat-kompozit armaturali beton to‘sinlar hisobi *Mavlonov Ravshanbek Abdujabborovich* *No‘manova Sohiba Ergashboyevna*	137
18	Shisha kompozit armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligi *Mavlonov Ravshanbek Abdujabborovich* *No‘manova Sohiba Ergashboevna*	144
19	O‘zbek tilida sentiment tahlil uchun matnni tayyorlash *Abdulla Abdullayev*	151
20	Fosforit rudalarini boyitishning texnologik tahlili *Doniyarov Nodirjon Abdixakimovich* *Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi* *Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich*	158
21	Qon tomir protezlarini biokompatibil materiallari bilan almashtirilishining natijasi *Ergashev Mahmud Qahramon o‘g‘li* *Karjavov Abdixakim Raxmonovich*	167
22	Diaxron korpusning biznes-jarayoni va modeli *Xusainova Zilola Yuldashevna* *Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna*	172
23	Analysis of the hardening process of automobile engines after repair *Ilkhomjon Kasimov*	182
24	Bosh valning qayishqoq elementli podshipnikli tayanchlardagi ishqalanish kuchlari momentlarini aniqlash *Amonov Abduraxmon Rafiq o‘g‘li* *Muxammedjanov Mironshoh Mansurjonovich*	189
25	Tikuv mashinasi bosh val parametrlarini o‘lchash sxemalari va metodikasi tahlili *Amonov Abduraxmon Rafiq o‘gli* *Muxammedjanov Mironshoh Mansurjonovich*	195
26	Investigating the applications of silicon and sige alloys to energy harvesting *Khojimatov Islombek Turgunboy ugli*	203
27	Ftorlangan β-diketonlar va 1,3-diaminopropan asosida shiff asoslari sintezi va kvant kimyoviy tahlili *Muhiddinova Nigora Muhiddinovna* *Avezov Quvondiq G‘iyosovich*	211
28	Modeled intelligence: modern intelligent systems based on machine learning and their application areas *Ochilova Aziza* *Itolmasov Abdurakhmon*	219
29	Avtomobil yonilg‘i bakini ishlab chiqarish jarayonini o‘rganish va tahlil qilish *To‘rayev Shoyadbek Axmadjonovich*	232
30	Korporativ tizimlarda axborot almashinuvni nazoratlash masalalari *Fozilova M.M.* *Uchqunova D.N.*	241
31	Yigiruv korxonalarida hosil bo‘ladigan chiqindi turlari va ularni qayta ishlash imkoniyatlari *Nigora Junaydullayeva Xabibullayevna*	249
32	Пахтани майда ифлосликлардан қия тозалаш агрегатининг тажриба намунасини тайёрлаш ва қиялик бурчагини аниқлаш *Кулиев Тохир Мамаражапович* *Джамолов Рустам Камолидинович* *Хасанов Улуғбек Ортиқович* *Абидова Анора Рустам қизи*	255
33	Yumshatkich panjalarni qayta tiklashda elektrodlar sarfini hisoblash *Quvondiqov Yo.T.* *Nuraliyev T.A. 268*	260

ISSN 3030-3907

34	Advanced physico-chemical methods in raw mulberry silk degumming: efficiency, fiber integrity, and environmental impact *Ataxanov Avazbek*	268
35	Innovations in the dyeing and functional finishing of mulberry silk *Ataxanov Avazbek*	275
36	Fe–te integratsiyasi uchun kontakt materialini tahlil qilish va tanlash *Kasimaxunova Anarxan Mamasadikovna* *Atajonov Muxiddin Odiljonovich*	282
37	Jahon va respublika tajribasida ko‘priklarning ekspluatatsiya samaradorligini ta’minlash yondashuvlari. *Asanova Guljanat Orinbekovna* *Saatova Nodira Ziyayevna*	290
38	Smola hosil qiluvchi polimerlar sintezi va ularning xossalari *Qurbonnazarov Axror Jumag‘ul o‘g‘li* *Yakubov Erkin Shomuratovich*	298
39	Energy harvesting technologies using wind pressure in the road tunnels: a review *Avliyobek Juraboev*	307
40	Mintaqaviy investitsiya va innovatsion jarayonlarni infratuzilmaviy ta’minlash: mohiyat va tavsif *Xamrayev Quvvat Iskandarovich*	322
41	Quloq, burun va tomoq jarrohligida lazer va endoskopik texnologiyalarning klinik tashkil etilishi *Satvaldiyev Ixtiyorjon Umaraliyevich*	329
42	Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni sentiment tahlil qilish: bosqichma-bosqich yondashuv *Elov Botir Boltayevich* *Malika Suyunova Odil qizi*	341
43	No‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratib fraksiyalash qurilmasining tajriba nusxasini ishlab chiqish natijasi *Pardayev Obid Raximboboevich* *Islomov Muxammad Husniddin o‘g‘li*	353
44	O‘zbekistonda ekologiya fanining rivojlanishi *S.A. Sobirjonov*	359
45	Paxta tolasi va tolali chiqindilar aralashmasini tarash jarayonida texnologik va sifat ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi *N.O.Odilxonova*	365
46	Tilning modal–semantik tizimining kognitiv paradigmasi *Alimova M.X.* *Oripova M.J.* *Karimova Sh.T.*	375
47	Navbahor bentonitining kimyoviy tarkibini va fazoviy xususiyatlarini o‘rganish va uni kimyoviy faollashtirish *Mamadoliyev Ikromjon Ilhomidinovich* *Qilicheva Hurriyat Abdisodiqovna* *Karjavov Abdixakim Raxmonovich*	382
48	Quyosh issiqxonalarining energiya samaradorligi va ekologik afzalliklari *Raxmanov Valijon Turdaliyevich* *Allayorova Dilrabo Abdujamol qizi*	391
49	Aholi tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash modellari *Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich*	402
50	Surtma dorilarning organizmga ta’siri *Eshnazarova Shohsanam Toshmurod qizi* *Xasanov Feruz Odilovich* *Qodirov Behzod G‘ofurovich*	410
51	Milliy g‘oya rivojida tarixiy meros va qadriyatlar tizimi *Yunusova Nasiba Sharifovna* *Rahmonov Bahodir Mirzayevich*	416

ISSN 3030-3907

52	O‘simlik chiqindisi asosida alternativ uglerod xom ashyosini olish *Karabayeva Muslima Iftixorovna* *Salixanova Dilnoza Saidakbarovna* *Mirsalimova Saodat Rahmatjanovna* *Mahmudova Gulbahor Muqimjon qizi* *Ismoilova Muxtasar Abdumutalib qizi*	424
53	Исследование взаимодействия компонентов в системе сульфат марганца – сульфат аммония - вода *Тураев Зокиржон*	429
54	Intelligent assessment of the technical condition of power transformers *Abdullabekova D.R.* *Gulomov X.D.* *Akilxanov N.B.* *Akilxanov N.B.*	436
55	“Mahalliy temir oksid pigmentlaridan foydalanib past narxli bitumli antikorroziya qoplamasi yaratish” *Ne’matov X.I.* *Isroilov Y.Y.*	442
56	Занятия с родителями как средство развития родительской компетентности *Елена Палеева* *Ахмедова Махфуза Садиковна*	453
57	Buxoro ma’rifatparvar jadidlar ilmiy merosida komil inson masalasining falsafiy tahlili *Saloxov Akmal Qamariddinovich*	461

ISSN 3030-3907

ISSN 3030-3907

Buxoro davlat texnika universiteti hamda “DEVELOPMENT OF SCIENCE” ilmiy jurnali hamkorligida iqtidorli yoshlar o‘rtasida “Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovida 1chi , 2 chi, 3 chi o‘rin g‘oliblarining maqolalari e’lon qilinadi.

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Bozorova Feruza Jo‘raqulovna

Buxoro davlat texnika universiteti “Metrologiya va standartlashtirish” ixtisosligi II-kurs 124-24 MS guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi 2023-yilgi Konstitutsiyasining fuqarolarning erkin va farovon hayotini kafolatlashdagi roli, xususan ta’lim sohasidagi huquqiy norma va tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Konstitutsiyaning 41-, 42-, 43-, 44- va 45-moddalari chuqur o‘rganilib, ularning inson huquqlari, ijtimoiy adolat hamda barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya va ta’lim haqidagi asosiy g‘oyalari ham keltirilgan. Tahlil natijasida Konstitutsiyaning nafaqat huquqiy hujjat, balki erkin va farovon jamiyat qurishning pedagogik asosi sifatida ahamiyati ta’kidlangan. Tadqiqotda aralash usullar qo‘llanilgan bo‘lib, so‘rovnomalar, hujjatlar tahlili hamda talabalarning shaxsiy fikrlari ham inobatga olingan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, erkinlik, farovonlik, ta’lim huquqi, inson huquqlari, sifatli ta’lim, bepul ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, ilmiy erkinlik, inklyuziv ta’lim, milliy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, davlat siyosati.

Аннотация: В данной статье анализируется роль Конституции Республики Узбекистан 2023 года в обеспечении свободной и благополучной жизни граждан, с особым акцентом на правовые нормы и принципы в сфере образования. Подробно рассматриваются статьи 41–45 Конституции и их связь с правами человека, социальной справедливостью и устойчивым развитием. Также приведены ключевые идеи Президента Шавката Мирзиёева о Конституции и образовании. В результате анализа подчеркивается, что Конституция представляет собой не только юридический документ, но и педагогическую основу для построения свободного и процветающего общества. В исследовании использованы смешанные методы, включая опросы, анализ документов и личные мнения студентов.

Ключевые слова: конституция, свобода, благополучие, право на образование, права человека, качественное образование, бесплатное образование, среднее специальное образование, научная свобода, инклюзивное образование, национальные ценности, гражданское общество, государственная политика.

Abstract: This article examines the role of the 2023 Constitution of the Republic of Uzbekistan in guaranteeing citizens' freedom and well-being, with a particular focus on constitutional provisions and principles related to education. Articles 41–45 of the Constitution are thoroughly analyzed, highlighting their connection to human rights, social justice, and sustainable development. The core ideas of President Shavkat Mirziyoyev on the Constitution and education are also presented. The analysis underscores that the Constitution functions not only as a legal document but also as a pedagogical foundation for building a free and prosperous society. Mixed methods-including surveys, document analysis, and students' personal reflections-were employed in the study.

Keywords: Constitution, freedom, well-being, right to education, human rights, quality education, free education, secondary vocational education, academic freedom, inclusive education, national values, civil society, state policy.

Kirish

"Yangi Konstitutsiyamizda inson - barchasidan yuqori. Uning huquqlari, erkinligi, farovonligi - hamma narsadan ustun."

SH.M.Mirziyoyev

Zamonaviy demokratik jamiyatlar taraqqiyoti, barqarorligi hamda fuqarolari hayotining sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy Konstitutsiyaning huquqiy, siyosiy hamda axloqiy vazifalarini qanday amalga oshirishiga bog‘liq. Barcha narsadan avval Konstitutsiya - faqatgina davlat tuzilishining yuridik asosi emas, balki fuqarolarning erkinliklarini himoya qiluvchi, ularning shaxsiy farovonligini, ijtimoiy adolatni hamda barqaror rivojlanishni kafolatlovchi eng yuqori qonuniy hujjatdir. Uning ahamiyati shunchaki qonun hujjati sifatida cheklanmaydi, balki milliy identifikatsiya, fuqarolik madaniyati hamda jamiyatning kelajak strategiyasini belgilashda ham asosiy rol o‘ynaydi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinganidan so‘ng, mamlakatning mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki huquqiy poydevori sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Shu vaqtgacha Konstitutsiya bir necha marta o‘zgartirilib, jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga javob berishga harakat qildi. Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan va 2023-yil 1-iyuldan kuchga kiruvchi keng qamrovli o‘zgartirishlar O‘zbekiston Konstitutsiyasini yangi bosqichga ko‘tarib chiqdi. Yangi tahrirda inson huquqlari, ijtimoiy himoya, gender tengligi, ekologik muvozanat, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi zamonaviy tamoyillar mustahkamlab, ular huquqiy kafolatlar darajasiga ko‘tarildi [1].

So‘nggi o‘n yil ichida O‘zbekiston hukumati mamlakatda demokratiya, inson huquqlari, huquqiy himoya hamda iqtisodiy erkinliklarni rivojlantirish yo‘lida qat'iy islohotlar o‘tkazdi. Jumladan, fuqarolarning ovoz berish huquqi,

ISSN 3030-3907

bepul ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy faollik hamda nodavlat tashkilotlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi qonunchilik bazasi kengaytirildi [3]. Shu bilan birga, ushbu huquqiy norma va tamoyillarning fuqarolarning kundalik hayotiga qanday darajada kirib borayotgani, ularning ijtimoiy ongga, iqtisodiy qarorlarga hamda madaniy xatti-harakatlarga qanday ta’sir qilayotgani haqida yetarli darajada ilmiy tahlillar mavjud emas. Xususan, Konstitutsiyaning “erkin va farovon hayot garovi” sifatida ijtimoiy-psixologik, pedagogik hamda iqtisodiy jihatlardan tizimli o‘rganilishi hali amalga oshmagan [13].

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiyaning faqat yozuvda mavjud bo‘lishi yetarli emas - uning amaliyotda samarali amal qilishi, fuqarolarning uni tushunishi, qadrlashi hamda uning tamoyillariga amal qilishga tayyor bo‘lishi muhimdir. Masalan, Germaniya, Estoniya yoki Janubiy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlarda Konstitutsiya nafaqat huquqshunoslar, balki oddiy fuqarolar uchun ham hayotning asosiy qo‘llanmasi sifatida qabul qilingan [11]. Shu tarzda Konstitutsiya jamiyatning axloqiy kompassi, ijtimoiy kelishuvning ramzi hamda fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida ishlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya haqidagi fikrlari quyidagicha:

“Yangi Konstitutsiya - bu xalqning irodasi, kelajakka ishonchini, erkin va adolatli jamiyat qurishga qaratilgan qarorli niyatidir” [5].

“Konstitutsiya nafaqat qog‘ozda, balki har bir insonning kundalik hayotida, maktabda, ish joyida, oilada his qilinib borishi kerak” [6].



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim haqidagi fikrlari:

“Ta’lim - bu har bir fuqaroning, har bir oilaning, butun mamlakatning kelajagi. Aql-idrok, bilim va ongli avlodni tarbiyalash - bizning eng muhim vazifamizdir” [4].

ISSN 3030-3907

“Biz eski, qotib qolgan ta’lim tizimini zamon talablariga mos keladigan yangi tizimga aylantirishimiz kerak. Ta’limda nafaqat bilim, balki fikrlash qobiliyati, erkin fikr va javobgarlik ham tarbiyalanishi lozim” [8].

“O‘qituvchi - bu nafaqat kasb, balki e’tiqod. Ular jamiyatning onasi, kelajakning me’moridir. Shu sababli ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilash - bizning birinchi navbatdagi vazifamiz” [7].

Adabiyotlarning tahlili

Xalqaro va milliy adabiyotda Konstitutsiya tushunchasi ko‘pincha huquqiy va siyosiy jihatdan qaraladi. Masalan, Carl Schmitt Konstitutsiyani “davlatning siyosiy qarorlari to‘plami” sifatida ta’riflagan, lekin zamonaviy yondashuvlar uni inson huquqlari vositasi sifatida ham qabul qiladi [12]. UNESCO hisobotida, Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimlarni mustahkamlash hamda ijtimoiy adolatni ta’minlashning asosiy vositasi ekanligi ta’kidlangan [11].

O‘zbekiston kontekstida T. Xolmatov Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi aloqani tahlil qilgan bo‘lsa [13], Sh. Raximov esa Konstitutsiyaning iqtisodiy erkinliklarni himoya qilishdagi rolini o‘rganadi. Xalqaro tajriba orqali Germaniya, Janubiy Afrika Respublikasi va Estoniya kabi mamlakatlarning Konstitutsiyalari inson huquqlarini ta’minlash nuqtai nazaridan solishtirilgan [10].

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning “erkin va farovon hayot garovi” sifatida ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatlardan yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan shu jihatni chuqur tahlil qilish ushbu tadqiqotning yangi jihati hisoblanadi.

Ta’limga tegishli konstitutsiyaviy norma va tamoyillar: tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahriri ta’limni inson huquqlari tizimining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi hamda ta’limni erkin, sifatli, yetarli hamda inklyuziv xizmat sifatida himoya qilishga qaratilgan bir qator innovatsion o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi [1]. Bu o‘zgarishlar nafaqat ta’lim tizimining tuzilishini, balki undagi mazmuniy, pedagogik hamda huquqiy mazmunini ham tubdan o‘zgartiradi.

Ta’limning huquqiy asoslari

Konstitutsiyaning 41-moddasi ta’lim sohasidagi asosiy huquqiy tamoyillarni belgilaydi [1].

41-modda, 1-band: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega.” Bu band jahon huquqiy amaliyotida qabul qilingan universal tamoyilni - ta’limni inson huquqi sifatida e’tirof etishni aks ettiradi. Ushbu band O‘zbekistonda ta’limning har qanday cheklovlar (jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy qarashlari, iqtisodiy ahvoli va boshqalar) asosida rad etilishini taqiqlaydi [10].

41-modda, 2-band: “Davlat ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlash hamda ta’lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish vazifasini

ISSN 3030-3907

oladi.” Bu band davlatning ta’lim sohasidagi mas’uliyatini mustahkamlab, faqat “ta’lim berish” emas, balki ta’lim sifati, tizimning barqarorligi hamda davlat siyosatining ilmiy asoslanganligini talab qiladi [1].

41-modda, 3-band: “Boshlang‘ich umumiy ta’lim davlat tomonidan bepul ta’minlanadi va majburiy hisoblanadi.” Bu band milliy ta’lim tizimidagi asosiy poydevorni - bepul va majburiy boshlang‘ich ta’limni - huquqiy darajada kafolatlaydi. Ushbu tamoyil UNESCO hamda BMT Bola huquqlari konvensiyasining talablari bilan to‘liq mos keladi [10].

O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limiga kafolatlar

43-modda (2023-yilgi yangi tahrirda kiritilgan) ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi [1]:

43-modda, 1-band: “Har bir fuqaroga bepul o‘rta maxsus ta’lim berish kafolatlanadi.” Bu band O‘zbekiston tarixida birinchi marta o‘rta maxsus ta’limni bepul ta’minlashni Konstitutsiya darajasida e’lon qiladi. Bu qadam mamlakatda kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega [1].

43-modda, 2-band: “Davlat o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qishni qo‘llab-quvvatlaydi, ularning material-texnika bazasini rivojlantiradi.” Bu band faqat huquq e’lon qilinib qolmay, balki uning amalga oshirilish mexanizmlari - moliyalashtirish, infratuzilma rivojlanishi, kadrlar tayyorlash - ham kafolatlanganligini ko‘rsatadi [1].

Oliy ta’lim va ilmiy faoliyat erkinligi

44-modda oliy ta’lim hamda ilmiy faoliyat erkinligini himoya qiladi [1]:

44-modda, 1-band: “Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish huquqi har bir fuqaroga kafolatlanadi.” Bu band oliy ta’limning ochiq va erkin mavjudligini e’lon qiladi, lekin bepul emas - natijada, davlat grantlar, kreditlar hamda ijtimoiy stipendiyalar orqali imkoniyatlar tengligini ta’minlashi kerak [1].

44-modda, 2-band: “Ilmiy faoliyat erkinligi kafolatlanadi.” Ushbu band ilmiy ijod, tadqiqotlar olib borish, ilmiy g‘oyalarni erkin ifodalash huquqini himoya qiladi. Bu kelajakdagi innovatsion iqtisodiyot, raqamli jamiyat hamda intellektual rivojlanish uchun asos hisoblanadi [1].

Inklyuziv ta’lim hamda maxsus ehtiyojli fuqarolar

42-modda (inson huquqlari bo‘limida) maxsus ehtiyojli shaxslarning huquqlarini belgilaydi [1]:

42-modda, 4-band: “Nogironligi bor fuqarolarning ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat faoliyati hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqlari kafolatlanadi.” Bu band inklyuziv ta’lim tamoyilini Konstitutsiya darajasida

ISSN 3030-3907

mustahkamlashni anglatadi - ya’ni ta’lim tizimi barcha fuqarolarni, jumladan nogironligi borlarini ham o‘z ichiga oladi [10].

Ta’limning madaniy-ma’naviy asoslari

45-modda ta’lim tizimining ma’naviy-madaniy yo‘nalishini belgilaydi [1]:

45-modda: “Davlat fuqarolarda milliy, ma’naviy-ma’rifiy hamda umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashni ta’minlaydi.” Bu band ta’limni nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni tarbiyalovchi, fuqarolik ongni shakllantiruvchi vosita sifatida qarashni talab qiladi. Bu erkin va farovon jamiyat qurishning axloqiy asosidir [1].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim - erkinlik va farovonlikning poydevoridir. Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahriri ta’limni inson huquqlari, ijtimoiy adolat, iqtisodiy erkinlik hamda ma’naviy barqarorlikning asosiy vositasi sifatida qabul qiladi [1]. Ta’lim sohasidagi huquqiy norma endilikda faqat “bilim olish”dan tashqari, sifatli, yetarli, inklyuziv, kasbga yo‘naltirilgan hamda erkin fikr ifodalashni rag‘batlantiruvchi tizimni yaratishga qaratilgan. Shu jihatdan, Konstitutsiya - nafaqat huquqiy hujjat, balki erkin va farovon hayotni shakllantiruvchi pedagogik manifestdir [4, 8].

Konstitutsiyada ta’lim sohasiga berilgan e’tibor menga juda kuchli taassurot qoldirdi. Ayniqsa, 43-modda orqali bepul o‘rta maxsus ta’lim huquqining kafolatlanganligi - bu nafaqat yoshlarga, balki butun jamiyatga foydali bo‘lgan qaror [1]. Men o‘zim ham akasi o‘rta maxsus ta’limni to‘g‘ri tanlaganidan keyin ishga qabul qilinganini, oilamizning iqtisodiy ahvoli yaxshilanganini ko‘rib keldim. Shu jihatdan, Konstitutsiyadagi bu band nafaqat yozuv, balki haqiqiy hayotga ta’sir qiluvchi huquqdir [1].

Shuningdek, 41-modda, 2-bandda aytilganidek, ta’lim sifatiga e’tibor berilishi ham muhim. Hozirda ko‘plab maktablarda zamonaviy texnologiyalar yetishmaydi, o‘qituvchilarning malakasi turlicha. Shu sababli Konstitutsiyada aytilgan “sifatli ta’lim” tamoyilini amalga oshirish uchun nafaqat qonun, balki ta’lim xodimlarini qayta tayyorlash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish ham zarur [8]. Men ta’limni faqat maktab devorlariga cheklab qo‘yish mumkin emas, deb o‘ylayman -raqamli ta’lim, masofaviy kurslar, interfaol usullar ham Konstitutsiya ruhiga mos keladi [4].

44-modda, 2-bandda keltirilgan ilmiy faoliyat erkinligi menga ayniqsa yoqdi. Oliy o‘quv yurtlarida ba’zan talabalarning g‘oyalari “noto‘g‘ri” deb hisoblanib, ularni ifodalash imkoniyati cheklangan hollarni uchratdim. Biroq, Konstitutsiya bunday cheklovlarga yo‘l qo‘ymasligini aytdi [1]. Bu esa erkin fikrlash, tanqidiy tafakkur, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish demakdir. Aytadigan so‘zim bor: “Bilim - erkin fikrdan tug‘iladi”. Shu erkinlikni himoya qilish - kelajak generatsiyasini shakllantirishning kaliti [8].

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, 42-modda orqali nogironligi bor fuqarolar uchun ta’lim huquqining kafolatlanganligi ham dolzarb masala [10]. Mening do‘stim - nogironligi bor talaba - ko‘pincha maktabga kirishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ammo yangi Konstitutsiya va uning amalga oshirilishi orqali bunday insonlarning ham teng huquqli fuqarolar sifatida qabul qilinishi kerak. Inklyuziv ta’lim - adolatning bir ko‘rinishidir [1].

Nihoyat, 45-moddada aytilgani kabi, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash ham muhim. Lekin men o‘ylayman-ki, bu tarbiyalash nafaqat ma’naviy darslar orqali emas, balki har bir fan, har bir dars, har bir o‘qituvchi orqali amalga oshirilishi kerak. Masalan, matematika darsida ham adolat, fizika darsida ham atrof-muhitga mehr, tarix darsida ham fuqarolik ongini shakllantirish mumkin. Ta’lim - bu nafaqat aqlni, balki yurakni ham tarbiyalaydi [4].

Umuman olganda, Konstitutsiyadagi ta’limga oid moddalar menga shuni tushuntiradiki: erkin va farovon hayot - bilim hamda ongli avlod orqali quriladi. Shu sababli ham biz, talabalar, nafaqat o‘z huquqlarimizni bilish, balki ularni amalda qo‘llash, jamiyatda ularni himoya qilish hamda rivojlantirishda faol ishtirok etishimiz kerak [4, 7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel, yangi tahriri) // Lex.uz – Respublika qonunchilik palatasi rasmiy portali. – URL: https://lex.uz/ru/docs/6960218
2. Mirziyoyev Sh. M. “Birgalikda – kuchli O‘zbekiston yaratamiz” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-apreldagi xalq bilan suhbat matni. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. “O‘zbekiston – 2030: yangi rivojlanish strategiyasi” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyuldagi farmoni. – URL: https://president.uz/oz/articles/view/7489
4. Mirziyoyev Sh. M. “Ta’lim – kelajak asosi” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-sentyabrdagi “Bilim yili” ochilish marosimida so‘zlar to‘plami. – Toshkent: “Sharq”, 2023. – 24 b.
5. Mirziyoyev Sh. M. “Inson – barchasidan yuqori” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-apreldagi Oliy Majlisda nutqi. – URL: https://president.uz/oz/speeches/view/7021
6. Mirziyoyev Sh. M. “Yangi Konstitutsiya – yangi O‘zbekiston” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyuldagi bayonoti. – URL: https://president.uz/oz/articles/view/7055

ISSN 3030-3907

7. Mirziyoyev Sh. M. “Har bir o‘qituvchi – kelajak me’moridir” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-oktyabrda O‘qituvchi kuni munosabati bilan qilingan murojaati. – URL: https://president.uz/oz/speeches/view/7102
8. Mirziyoyev Sh. M. “Ta’limda inqilob qilish vaqti keldi” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi ta’lim tizimi islohotlari to‘g‘risidagi qarori asosida so‘zlar to‘plami. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 36 b.
9. Mirziyoyev Sh. M. “Fuqarolik jamiyati – demokratiyaning poydevoridir” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevraldagi Fuqarolik Jamiyati V forumidagi nutqi. – URL: https://president.uz/oz/speeches/view/7523
10. BMT. Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya (1989) // BMT rasmiy hujjatlari. – URL:
11. UNESCO. Raxbariyat: Ta’lim – barqarorlik va tinchlik asosi // Parizh: UNESCO nashriyoti, 2022. – 112 b.
12. Habermas J. Haqiqat va adolat: Diskurs nazariyasiga hissa. – M.: “Logos”, 2005. – 320 b.
13. Xolmatov T. Konstitutsion huquq asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2021. – 256 b.

ISSN 3030-3907

"KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI"

Abdurasulova Durdona Halim qizi
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi .
E.mail: durdonaabdurasulova089@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Kastitutsiyasining qachon qabul qilinganligi va mohiyati, uning qonun - qoidalari va inson huquq erkinliklari haqida malumotga ega bo‘lamiz shuningdek Konstitutsiyaning fuqarolar hayotidagi o‘rni qandayligini va qanaqa o‘zgartirishlar kiritilganligini bilib u haqida chuqurroq bilimlarni egallaymiz .

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasining 1-Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi, qonun ,qoida , Oliy Kengash, umumxalq.

Аннотация: В этой статье мы узнаем о том, когда была принята и существо Конституции Республики Узбекистан, ее законах и правах человека, а также узнаем, какова роль Конституции в жизни граждан и какие изменения были внесены, и получим более глубокие знания о ней .

Ключевые слова: 1-я Конституция Республики Узбекистан, новая Конституция Республики Узбекистан ,закон , правило, Верховный Совет, всенародный.

Annotation: in this article we will have information about when and the essence of the Castituto of the Republic of Uzbekistan was adopted, its laws and human rights freedoms and also we will acquire deeper knowledge about it knowing what is the role of the Constitution in the life of citizens and what amendments have been made .

Keywords: 1st Constitution of the Republic of Uzbekistan, new Constitution of the Republic of Uzbekistan, law ,rule , supreme council, general.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining 1 – Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib u 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilindi. „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident

ISSN 3030-3907

Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo‘jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan.

Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e’lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko‘rib, loyihani tuzatib va ma’qullab Oliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so‘ng qabul qilingan.GOLUBIKA o‘simligi Vereksdoshlar oilasi ,Vaksinium turkumiga kiritilgan bargini to‘quvchi buta o‘simlik hisoblanadi.Golubika o‘simligining mevasi jahon bozorida eng qimmatli rezavor mevalar qatoriga kiradi.

Konstitutsiyaning ahamiyati:

Mustaqil O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va demokratik tuzumining huquqiy asosini yaratdi.

Inson huquqlari, xalq hokimiyati, hokimiyatlar bo‘linishi tamoyillarini belgiladi.

Keyingi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar uchun poydevor bo‘ldi.

Konstitutsiyaning tuzilishi

Mustaqilligi, suverenitet, davlat tili, hududiy yaxlitlik va hokazolar) O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi:

1. Kirish qismi (Preambula)

– O‘zbekiston xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini e’lon qiladi,

– Mustaqillik, demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillarini tasdiqlaydi.

2. 6 ta bo‘lim:

1. Umumiy qoidalar
(davlat mustaqilligi,suverenitet,davlat tili,hududiy yaxlitlik va hokazolar)
2. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari
(shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar)
3. Jamiyat va shaxs
(oila, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, jamoat tashkilotlari)
4. Davlat hokimiyati tuzilishi


(Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, sudlar, mahalliy hokimiyat organlari)

5. Ma’muriy-hududiy tuzilish
(respublika, viloyatlar, tumanlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomi)

ISSN 3030-3907

6. Konstitutsiyani o‘zgartirish tartibi

3. 128 ta modda (ba’zi manbalarda 126 yoki 128 modda deb keltiriladi – bu tahrirga qarab farq qiladi)



1-rasm . O‘zbekiston Respublikasining 1- Kastitutsiyasi

Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi

Har bir davlatning mustaqilligi va taraqqiyoti uning asosiy qonuni — Konstitutsiyada o‘z ifodasini topadi. Konstitutsiya — bu xalq irodasining timsoli, davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining huquqiy poydevoridir. U nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatini belgilaydi, balki insonning erkin va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan huquq va erkinliklarni kafolatlaydi.

Konstitutsiyada belgilangan inson huquqlari, so‘z va e’tiqod erkinligi, ta’lim olish huquqi, mehnat qilish va erkin yashash huquqi – bularning barchasi fuqarolarning farovon hayotini ta’minlashga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan[1][2].

KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

Asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek:

2021-yil 8-fevral kuni „O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida“gi qonun qabul qilindi. O‘zgartirishga ko‘ra, O‘zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;

tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma’muriy sudlari.



2 -rasm.O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi.

ISSN 3030-3907

Tuzilishi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat[4].

1-bo‘lim (I-IV bob, 1-18-moddalar) „Asosiy prinsiplar“ deb nomlangan.

2-bo‘lim (V-XI bob, 19-64-moddalar) „Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari“ deb ataladi.

3-bo‘lim (XII-XV bob, 65-82-moddalar) „Jamiyat va shaxs“ deb ataladi.

4-bo‘lim (XVI-XVII bob, 83-90-moddalar) „Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi“ deb nomlangan.

5-bo‘lim (XVIII-XXVII bob, 91-153-moddalar) „Davlat hokimiyatining tashkil etilishi“ deb nomlangan.

6-bo‘lim (154-155-moddalar) „Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi“ deb ataladi.

Erkinlik va farovonlik kafolati

Konstitutsiya har bir fuqaroning erkin fikrlashi, o‘z qobiliyatini namoyon etishi, mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

Davlat esa ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Shu boisdan ham Konstitutsiya — erkinlik garovi, ya’ni insonning o‘z hayot yo‘lini erkin tanlashiga imkon beruvchi qonundir.

Farovonlik esa — tinchlik, barqarorlik va qonun ustuvorligi mavjud bo‘lgan joyda yuzaga keladi. Konstitutsiyada xalq manfaatlari ustuvor qo‘yilganligi tufayli, har bir fuqaro tinch va farovon hayot kechirish imkoniga ega.

Konstitutsiya — bu shunchaki qonunlar to‘plami emas, balki xalqimizning irodasi, orzusi va kelajakka bo‘lgan ishonchidir.

Shuning uchun biz, yoshlar, uning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganib, unga sadoqat bilan amal qilishimiz zarur. Zero, Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimizning eng ishonchli kafolatidir.

Konstitutsiyada fuqarolarning yashash, ta’lim olish, mehnat qilish, fikr bildirish, e’tiqod tanlash kabi asosiy huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, unda davlat hokimiyati tizimi, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘llari belgilangan. Bu esa mamlakatda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi**.**

Bugungi kunda Konstitutsiya O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi taraqqiyotining bosh mezoni bo‘lib xizmat qilmoqda. Unda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Har bir fuqaro so‘z, e’tiqod, ta’lim, mehnat va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega. Aynan shu huquq va imkoniyatlar jamiyatimizda erkinlik, barqarorlik va farovonlikni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Konstitutsiya bizga tinchlik, adolat va qonun ustuvorligi muhitini yaratib beradi. Shu sababli uni chuqur o‘rganish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning muqaddas burchidir. Chunki Konstitutsiya faqat hujjat emas — u xalqning orzusi, ezgu maqsadi va kelajakka bo‘lgan ishonchining ramzidir.

Shu boisdan ham bemalol aytish mumkinki, Konstitutsiya – bizning erkin va farovon hayotimizning eng ishonchli garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 21-dekabr soni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992.
5. Abdullayev A.X., Tadjixodjayev S.S. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2020.
6. Rasulov X.R. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Qonun. – www.lex.uz (rasmiy huquqiy axborot portali).
8. Jo‘rayev M. Inson huquqlari va fuqarolik erkinliklari kafolatlari. – Toshkent: “Adolat”, 2019.
9. “Konstitutsiya – xalq irodasining ifodasi” maqolasi. – Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2022-yil 8-dekabr soni.

ISSN 3030-3907

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI.

Sultonova Oydina Ibroyimovna.
Buxoro davlat texnika universiteti M 18-25 OOX magistranti.
E-mail: oydinaibroyimovna@gmail.com

Annotatsiya: Har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tartibga soluvchi asosiy qonuni konstitutsiya bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson huquqlarining kafolatlanishi va davlat boshqaruvining aniq tizimda ishlashini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, mustaqillik g‘oyalari va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim hujjat. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ilg`or islohotlarning barqarorligi ham aynan Konstitutsiyamizda belgilab berilgan tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek Konstitutsiyamizni erkin va farovon hayotning asosiy garovi sifatida e’tirof etishimiz o`rinli.

**Kalit so`zlar:** Qonun, g`oya, milliy manfaatlar, hokimiyat tarmoqlari, majburiyat, inson huquqlari,siyosiy huquqiy asos,tamoyillar, hokimiyat tarmoqlari, so‘z va fikr erkinligi, yashash huquqi, vijdon erkinligi.

Аннотация: Конституция является основным законом, регулирующим политическую, социальную и экономическую жизнь каждого государства; она обеспечивает устойчивое развитие общества, гарантию прав человека и функционирование государственного управления в чёткой системе. Конституция Республики Узбекистан-важный документ, в котором воплощены вечные стремления нашего народа, идеи независимости и национальные ценности. В настоящее время устойчивость проводимых в нашей стране передовых реформ осуществляется именно на основе принципов, закреплённых в нашей Конституции. Также уместно признать нашу Конституцию основной гарантией свободной и благополучной жизни.

Ключевые слова: Закон, идея, национальные интересы, ветви власти, обязанность (обязательство), права человека, политико-правовая основа, принципы, свобода слова и мысли, право на жизнь, свобода совести.

Abstract: The Constitution is the fundamental law that regulates the political, social and economic life of every state; it ensures the stable development of society, the guarantee of human rights, and the functioning of state governance within a clear system. The Constitution of the Republic of Uzbekistan is an important document embodying our people's eternal aspirations, the ideas of independence, and national values. Today, the stability of the progressive reforms being carried out in our country is implemented precisely on the basis of the principles enshrined in our Constitution. It is also appropriate to recognize our Constitution as the main guarantor of a free and prosperous life.

ISSN 3030-3907

Keywords: Law, idea (concept), national interests, branches of government, obligation (duty), human rights, political and legal basis, principles, freedom of speech and thought, right to life, freedom of conscience.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — mamlakatning huquqiy asoslarini belgilovchi eng muhim hujjat bo‘lib, u demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat tuzishga yo‘l ochadi. Konstitutsiya, mamlakatning barcha fuqarolariga teng huquqlar va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning huquqiy himoyasini ta’minlaydi, shuningdek, demokratik va erkin jamiyatni rivojlantirishning asosiy yuridik hujjati hisoblanadi. Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni va bosh qomusimiz bo‘lib, unda xalqimizning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi va insonlarning farovon hayot kechirishi uchun muhim tamoyillar belgilab qo‘yilgan. Har bir demokratik davlatda Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat darajasiga ko‘taradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, mustaqillik g‘oyalari va milliy manfaatlarini o‘zida mujassam etgan asosiy hujjat sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda, Konstitutsiya-davlat tuzilishi, boshqaruv shakli, hokimiyat tarmoqlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi poydevor hujjatdir. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydigan eng oliy hujjat sifatida jamiyat barqarorligini ham ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, mamlakatimizning siyosiy-huquqiy asosini yaratdi. Unda "Inson jamiyat davlat" tamoyili asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Bu tamoyil davlat siyosatining markazida inson manfaatlari turishini bildiradi. Shuningdek, Konstitutsiya hokimiyatning bo‘linishi qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining mustaqilligi tamoyilini belgilab, adolatli boshqaruvni ta’minlashga xizmat qiladi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi Konstitutsiyaning eng muhim bo‘limlaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklariga bag‘ishlangan bo‘limdir. Unda quyidagilar belgilab qo`yilgan:

- yashash huquqi;
- so‘z va fikr erkinligi;
- vijdon erkinligi;
- ta’lim olish huquqi;
- mehnat qilish huquqi;
- sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanish huquqi;

Shuningdek, ayollar, bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar huquqlarining davlat tomonidan alohida himoya qilinishi ham belgilangan. Bu barcha qatlamlar uchun tenglik va adolat tamoyillarining amalda ta’minlanishiga

ISSN 3030-3907

xizmat qiladi. Konstitutsiya farovon hayot garovi hamdir. Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolatidir. Unda iqtisodiy barqarorlik, mulk shakllari tengligi, tadbirkorlik erkinligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa iqtisodiy rivojlanish, farovon hayot va mustahkam ijtimoiy himoya tizimi uchun asos bo‘ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta’lim va tibbiyot tizimlarini modernizatsiya qilish bularning barchasi Konstitutsiyada belgilab qo`yilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Konstitutsiya va Yangi O‘zbekiston: So‘nggi yillarda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Unda inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, fuqarolarning huquqiy himoyasi, ta’lim sifati, mahallalar institutining roli yanada mustahkamlandi.

Qon tomir protezlarining biokompatibil materiallar bilan almashtirilishi yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda muhim bosqich hisoblanadi. Olib borilgan eksperimental va klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy materiallar — xususan, PTFE, Dacron, biodegradatsiyalanuvchi polimerlar va nanokompozitlar — bemorning hayot sifatini oshirish, protezning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlash va asoratlar xavfini kamaytirishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, sirt qoplamalari, antikoagulyant va antibakterial impregnatsiyalar orqali protezlarning biokompatibilligini kuchaytirish bo‘yicha qilingan yangiliklar bu sohada yuksak natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Xulosa: Shuningdek, yangi avlod biomateriallarning afzalliklari va ularni amaliyotga joriy etishdagi muammolar muhokama qilinadi. Maqsad — samarali, xavfsiz va uzoq muddatli ishlovchi qon tomir protezlarini tanlash va ularni qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Klinik amaliyotda ushbu protezlar bemorlarda yuqori darajadagi o‘tkazuvchanlik, past infeksiya darajasi va yaxshi to‘qima integratsiyasini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yangi regenerativ texnologiyalar, 3D-bioprinting va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilayotgan individual yondashuvlar yaqin kelajakda ushbu sohaning rivojida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, biokompatibil protez materiallari yurak-qon tomir jarrohligi sohasida davolash samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, M. A., & Green, R. (2021). *Advances in Vascular Graft Biocompatibility: From Material Science to Clinical Application*. Journal of Biomedical Materials Research, 109(4), 872–889.

2. Kachlany, S. C., et al. (2020). *Biodegradable vascular grafts: a review of materials and design*. Cardiovascular Engineering and Technology, 11(3), 321–334.

3. Malakhov, A. O., & Petrov, N. I. (2019). *Clinical outcomes of PTFE and Dacron grafts in arterial reconstruction: A comparative study*. Russian Journal of Vascular Surgery, 8(1), 45–51.

ISSN 3030-3907

4. Zhang, Y., et al. (2022). *Nanocomposite coatings for vascular grafts: reducing thrombogenicity and promoting endothelialization*. Materials Science and Engineering: C, 128, 112287.
5. World Health Organization (WHO). (2023). *Global Status Report on Cardiovascular Diseases*.
6. Rakhimov, O. A., & To‘xtasinov, B. T. (2021). *Yurak-qon tomir protezlarida biokompatibil materiallar qo‘llanishining dolzarb masalalari*. O‘zbekiston Tibbiyot Jurnali, 2(135), 56–61.
7. Sun, W., & Wang, Z. (2023). *3D Bioprinting in Cardiovascular Medicine: A New Era for Personalized Vascular Grafts*. Frontiers in Bioengineering and Biotechnology, 11, 1175312.
8. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration // Известия НАН РК. Серия химии и технологии. – 2020. – N .2. -C. 23-30.
9. Fayzullayev N. I., Karjavov A.R., Yusupova S. S. Catalytic Synthesis of Acetone Direct Acetylene Hydration // International journal of Advanced Science and Technology . – 2020 .- T.29. – N.05.- C 4507-4514.
10. Karjavov A. R., Fayzullaev N. Study of the kinetics and mechanism of the reaction of the catalytic hydrochloration of acytylene// AIP Conference proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. -T.3045. – N. 1.-C.060046.
11. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration. (2020),2, Number 440 (2020,),23-30 (Электронный ресурс).
12. Karjavov A.R., Fayzullayev N. Determination of technological parameters of producing vinylchloride from from acetylene // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC ,2024.- T.3045. -N. 1.- C.060045.
13. Karjavov A., Fayzullayev N.,Baykulov A. Production of acetone by catalytic hydration of acetylene // E3S Web of Conference . -EDP Science ,2023. -T .389.- C.01046

ISSN 3030-3907

DIAXRON KORPUSNING BIZNES-JARAYONI VA MODELI

Xusainova Zilola Yuldashevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
E-mail: xusainovazilola@navoiy-uni.uz
Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi II bosqich magistranti.
E-mail: surayyoyangibayeva4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida yaratilayotgan diaxron korpusning nazariy-metodik asoslari, biznes-jarayoni, texnik modeli hamda korpusni shakllantirishning bosqichlari 1991–2021-yillarda chop etilgan o‘zbek badiiy asarlari misolida yoritiladi. Tadqiqotda korpus qurish jarayoni nafaqat lingvistik bosqichlar majmuasi, balki BPMN (Business Process Model and Notation) standartiga tayangan holda shakllantirilgan biznes-jarayon sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijasida diaxron korpus uchun BPMN asosida ishlab chiqilgan biznes-jarayon modeli taklif etildi va korpusning texnologik arxitekturasi batafsil yoritildi. Olingan natijalar diaxron korpusning ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixiy til qatlamlarini o‘rganish va kompyuter lingvistikasi uchun amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: diaxron korpus, biznes-jarayon, normalizatsiya, metama’lumotlar, indekslash, analitik modul, ER-model.

Abstract. This article describes the theoretical and methodological foundations, business process, technical model, and the stages of constructing a diachronic corpus being developed for the Uzbek language, using Uzbek literary works published between 1991 and 2021 as a case study. The study interprets the corpus-building process not only as a set of linguistic procedures but also as a business process designed in accordance with the BPMN (Business Process Model and Notation) standard. As a result of the research, a BPMN-based business-process model for the diachronic corpus was proposed, and the technological architecture of the corpus was elaborated in detail. The findings demonstrate the practical significance of the diachronic corpus for research activities, the study of historical language layers, and computational linguistics.

Keywords: diachronic corpus, business process, normalization, metadata, indexing, analytical module, ER model.

Аннотация. В данной статье описаны теоретико-методологические основы, бизнес-процесс, техническая модель и этапы формирования диахронного корпуса, создаваемого для узбекского языка, на примере художественных произведений узбекской литературы, изданных в 1991–2021 годах. В исследовании процесс построения корпуса трактуется не только как

совокупность лингвистических процедур, но и как бизнес-процесс, разработанный в соответствии со стандартом BPMN (Business Process Model and Notation). В результате исследования была предложена бизнес-модель процесса для диахронного корпуса на основе BPMN, а технологическая архитектура корпуса детально раскрыта. Полученные результаты демонстрируют практическую значимость диахронного корпуса для научно-исследовательской деятельности, изучения исторических слоёв языка и компьютерной лингвистики.

Ключевые слова: диахронный корпус, бизнес-процесс, нормализация, метаданные, индексирование, аналитический модуль, ER-модель.

Kirish

Tilning tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz beradigan leksik, grammatik, uslubiy va semantik o‘zgarishlarni aniqlash, ularning dinamik rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda qayd qilish lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda korpus lingvistikasining jadal rivojlanishi natijasida til birliklarini nafaqat sinxron, balki diaxron kesimda ham tizimli tadqiq etish imkoniyati kengaydi. Diaxron korpuslar ma’lum tarixiy davrlarni aks ettiruvchi, vaqt bo‘yicha tartiblangan matnlar majmuasi bo‘lib, tilning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini aniqlash, nutqiy birliklarning paydo bo‘lishi, kengayishi yoki yo‘qolish jarayonlarini statistik hamda avtomatik lingvistik modellar yordamida tahlil qilish imkonini beradi.

Diaxron korpus mavjud bo‘lmagan sharoitda tadqiqotchilar matnlarni qo‘lda yig‘ish, tasniflash va vaqt bo‘yicha tahlil qilishga majbur bo‘ladilar. Shuningdek, jarayon katta vaqt va resurs talab qiladi, natijada tadqiqotlarning aniqligi hamda takrorlanish imkoniyati cheklanadi. Mavjud korpuslar lingvistik annotatsiya sifati, morfologik belgilash standartlari, metama’lumotlar tizimi va semantik toifalash kabi jihatlar bo‘yicha yagona metodikaga ega emas. Bu esa diaxron tadqiqotlar uchun zarur ilmiy ishonchlilikni pasaytiradi. Shu sababli, diaxron korpus yaratish jarayonining biznes-jarayon modeli va texnologik asoslarini ishlab chiqish, jarayonni avtomatlashtirish va ilmiy standartlashtirish bugungi korpus lingvistikasining dolzarb vazifasidir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – mustaqillik yillari matnlari misolida diaxron korpus yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, texnologik biznes jarayonini modellashtirish va korpusning funksional imkoniyatlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot doirasida korpusning tuzilishi, metama’lumotlar tizimi, vaqt bo‘yicha tabaqalashtirish prinsiplari hamda avtomatlashtirilgan jarayonlar asoslab beriladi.

Diaxron korpuslarning yaratilishi nafaqat lingvistik jarayon, balki aniq belgilangan bosqichlardan iborat ***biznes jarayoni*** sifatida ham talqin qilinadi.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy korpus lingvistikasida korpus qurish jarayonlarini standartlashtirish, modellashtirish va optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, diaxron korpusni yaratishda ***BPMN (Business Process Model and Notation)*** kabi xalqaro standartlardan foydalanish jarayonni izchil, boshqariladigan va takrorlanadigan qilish imkonini beradi. BPMN modeli korpus yaratishning barcha bosqichlarini – matnlarni yig‘ishdan tortib, tozalash, metama’lumotlar bilan boyitish, indekslash, tahlil instrumentlarini qo‘shish va yakuniy foydalanuvchi interfeysini yaratishgacha bo‘lgan jarayonlarni vizual ko‘rinishda aniq aks ettiradi. Biznes-jarayon sifatida qaralganda, korpus qurilishi bir necha asosiy bloklarga bo‘linadi: ***kiritish jarayoni (input)*** – matnlarni yig‘ish; ***qayta ishlash jarayoni (process)*** – tozalash, normallashtirish, anotatsiyalash va metama’lumotlarni shakllantirish; ***chiqish jarayoni (output)*** – tahlil qilish, statistik hisob-kitoblar va foydalanuvchi interfeysi orqali foydalanish. Ushbu bosqichlarning har biri o‘zining alohida vazifalari, qaror nuqtalari va mas’ul rollariga ega bo‘lib, korpus yaratishning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korpus NLP tizimlarining asosidir. Ular AI va mashinali o‘rgatish tizimlarini o‘rgatish uchun ishlatiladi. Ular axborot hayotiy davrlarini modellashtirish va bashorat qilish uchun keng va xilmaxil ma’lumotlar to‘plamini taqdim etadi. Korpus NLP tizimini tabiiy tilni boshqarish va sharhlash uchun tayyorlaydi, bu esa odamlar bilan tabiiy tilda oson muloqot qilish imkonini beradi [Elov B.B., Yuldashev A.U., Yodgorov U.S. 2024]. Ma’lumki diaxron korpuslar bu ma’lum bir tilning yoki lahjaning tarixiy rivojlanishini o‘rganish uchun yaratilgan matnlar to‘plamidir. Ular turli davrlarda chop etilgan matnlarni birlashtirib, tilning leksik, morfologik, sintaktik va semantik o‘zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi [Kilgarriff A. 2005]. Diaxron korpusning biznes modeli esa uning funksional arxitekturasini belgilaydi. Modellash jarayonida korpusning ma’lumotlar bazasi strukturasini, indekslash mexanizmlarini, tahliliy modullarini va foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqasini tashkil etuvchi komponentlar aniqlanadi. Bu yondashuv korpusni nafaqat tadqiqot uchun qulay resurs, balki uzoq muddatli rivojlantiriladigan ilmiy platforma sifatida shakllantirish imkonini beradi. BPMN asosidagi yondashuv jarayonning shaffofligi, takomillashtirilishi va kengaytirilishi uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Shu bois, ushbu ilmiy tadqiqotda diaxron korpusning nafaqat lingvistik, balki ***jarayon boshqaruvi va texnologik modellashtirish*** aspektlari ham yoritiladi.

Diaxron korpuslar tilning va matnlarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ilmiy ish 1991–2021-yillar oralig‘idagi o‘zbek badiiy asarlarini qamrab olgan diaxron korpus yaratishga qaratilgan bo‘lib, uning shakllanish jarayoni nafaqat lingvistik, balki aniq belgilangan ***biznes-jarayon***

ISSN 3030-3907

modeli asosida tashkil etildi. Korpus yaratishning texnologik bosqichlarini biznes nuqtayi nazardan modellashtirish jarayonni izchil, boshqariladigan va takrorlanadigan qiladi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda bunday jarayonlar ko‘pincha BPMN kabi rasmiy standartlar orqali ifodalanadi [Dumas M., La Rosa M., Mendling J. and Reijers H. 2013]. Tadqiqotda qo‘llangan BPMN modeli korpus yaratishning barcha bosqichlarini – matnlarni yig‘ish, tozalash, metama’lumotlar yaratish, indekslash va foydalanuvchi interfeysi orqali tahlil qilishni – yagona jarayon sifatida tasvirlash imkonini berdi. Bu yondashuv ilmiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi va workflow boshqaruviga oid nazariy asoslar bilan hamohangdir [Reijers H.A. 2003]. Shuningdek, korpus yaratilishida lingvistik jarayonlarning metodik muhiti ham inobatga olindi. Matnlarni yig‘ish, tozalash va anotatsiya qilish jarayonlari korpus lingvistikasining umumiy metodologik standartlariga tayanadi [McEnery T. and Hardie A., 2012]. Har bir matn muallif, asar nomi, yozilgan yili, nashr yili va janr kabi atributlar bilan indekslandi, bu esa korpusni tizimli tahlil qilish imkonini berdi.

ASOSIY QISM

Diaxron korpusning biznes-jarayoni va arxitekturasi

Diaxron korpusni yaratish jarayoni nafaqat lingvistik jarayonlar ketma-ketligidan, balki murakkab axborot tizimi sifatida qaraladigan ***biznes-jarayonlar tizimi***dan iborat. Biznes-jarayonlarni modellashtirish (BPM) raqamli tizimlar uchun funksional oqimlarni aniqlash, ularni standartlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Shu bois korpus arxitekturasi BPMN (Business Process Model and Notation) standarti asosida qayta ishlab chiqildi. BPMN modeli korpus yaratish siklini bosqichma-bosqich, formallashtirilgan va takrorlanuvchi biznes-jarayon sifatida tasvirlashga yordam beradi.

Diaxron korpusning biznes-jarayoni dastlab mustaqillik yillariga oid representativ matnlar tanlash hisoblanib, matnlarni tizimli yig‘ishdan boshlanadi. Tanlov jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

– Davriy oralig‘i. 1991–2021-yillar.

– Janrlar. Ilmiy-ommabop, rasmiy hujjatlar, publitsistika, matbuot, badiiy matnlar.

– Manba barqarorligi. matnlarning elektron shaklda mavjudligi va ularning autentikligi.

Ushbu tadqiqot doirasida 1991–2021 yillar oralig‘ida nashr qilingan o‘zbek badiiy asarlari asosiy manba sifatida tanlandi. Har bir asar turli formatlarda (PDF, TXT, Word) yig‘ildi va muallif, nashr yili, janr bo‘yicha tasniflandi. Matnlarni yig‘ish jarayonida ularning rasmiy nashr nusxalari va ishonchli manbalar tanlanishi korpusning ilmiy ishonchliligini ta’minlash uchun muhimdir. Yig‘ilgan matnlar keyingi bosqichda tozalash va normalizatsiyadan o‘tkazildi. Bu bosqichda Kril

ISSN 3030-3907

yozuvi Lotin alifbosiga o‘tkazildi, imlo va orfografik xatolar tuzatildi, ortiqcha bo‘sh joylar va noto‘g‘ri belgilardan xalos bo‘linadi. Matnlarni tozalash jarayoni korpusning sifatli tahlil qilinishini kafolatlaydi, shuningdek, avtomatlashtirilgan tahlil algoritmlarining samaradorligini oshiradi. Quyida ushbu bosqichlar ketma-ketlikda yoritiladi.

1. Matnlarni yig‘ish, raqamlashtirish va manbalarni aniqlash

Til korpusi matnlari Unicode kodlashtirish tizimidagi simvollardan iborat bo‘lib, mashina tomonidan o‘qilishi kerak. Korpus matnlari hozirda foydalanilayotgan, “tozalangan” va tabiiy sharoitlarda to‘plangan tabiiy tilning elementlari (leksik birliklari)dan iborat bo‘lishi kerak [Elov B.B., Yuldashev A.U., Yodgorov U.S. 2024]. Diaxron korpus yaratish jarayonining ham boshlang‘ich bosqichi – ***manbalarni aniqlash*** va ***matnlarni to‘plash*** jarayonlaridir. Ushbu tadqiqot doirasida 1991–2021-yillar oralig‘idagi o‘zbek badiiy adabiyotiga mansub 120 ga yaqin asar tanlandi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

– adabiy asarning nashr qilingan yili;
– tilning davriy o‘zgarishini aks ettirishi;
– mualliflar ko‘lami keng bo‘lishi;
– matnlarning elektron ko‘rinishda mavjud bo‘lishi.

Bu bosqich BPMN notatsiyasida ***“Collect Textual Resources”*** deb nomlanadigan asosiy faoliyat turi sifatida belgilanadi. Matnlar PDF, DOCX va TXT formatlarida yig‘ildi. Matnlar turli formatlarda bo‘lgani sababli ularni raqamli standartga keltirish uchun quyidagi amallar bajarildi:

– PDF va skanerlangan hujjatlardan OCR (Optical Character Recognition) orqali matnlarni ajratib olish.

– To‘g‘rilanmagan belgilarni aniqlash va avtomatik ortografik normalizatsiya.

– Dublikatsiyalarni, reklama matnlarini, ortiqcha belgilarni tozalash.

– Matn bloklari yaxlitligini tiklash (sarlavha, paragraf, izohlar).

– Natijada korpus uchun yagona toza va standartlashtirilgan matnlar bazasi yaratildi.

2. Matnlarni tozalash va normalizatsiya qilish

Matnlar turli formatlarda kelishi ularni yagona standartga moslashtirish ehtiyojini tug‘diradi. Shu bois korpus yaratish jarayonining navbatdagi bosqichi – ***tozalash*** va ***normalizatsiya*** jarayonlaridir.

Ushbu bosqich quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

1. ***Kril → Lotin transliteratsiyasi***. Mustaqillik yillarida turli yozuvlarda chop etilgan asarlarda transliteratsiya muammosi mavjud bo‘lgani sababli

ISSN 3030-3907

avtomatlashtirilgan transliteratsiya moduli qo‘llandi. Transliterator imloviy me’yorlarni inobatga olgan holda yaratilgan.

2. ***Orfografik xatolarni avtomatik tuzatish***. Matnlarda uchraydigan eng ko‘p uchraydigan xatoliklar (qo‘sh harflar, o‘rin almashish, ortiqcha belgilalar) algoritmik tarzda aniqlanib, korpusda yagona shaklga keltirildi.

3. ***Belgilarni standartlashtirish***. Qo‘shtirnoqlar, tire, nuqta, vergulning turlicha kod variantlari bir xil ko‘rinishga o‘tkazildi.

3. Metama’lumotlarni yaratish va atributlash

Har bir matnni tizimli tahlil qilish uchun metama’lumotlar yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqot doirasida har bir asarga quyidagi atributlar kiritildi: muallif, sarlavha, nashr yili, janr, til va matn uzunligi. Ushbu ma’lumotlar standart formatda bazaga kiritildi, bu esa keyinchalik korpusni indekslash va avtomatik so‘rovlar orqali tez tahlil qilish imkonini beradi. Metama’lumotlar yaratish jarayoni diaxron korpusning ilmiy qadriyatini oshiradi, chunki ular orqali har bir matn konteksti va xususiyatlari aniq belgilanadi, shuningdek, turli davrlar va adiblar bo‘yicha solishtirish tahlillarini o‘tkazish imkonini beradi [Biber D. 1993].

Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusning muhim tarkibiy qismi – **metama’lumotlar (metadata)** bo‘lib, ular matnlarning kontekstual ma’nosini aniqlashga yordam beradi va ilmiy tahlilning qamrovini kengaytiradi. Ushbu bosqich quyidagi atributlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi:

– muallif (ismi, familiyasi);
– asar nomi;
– yozilgan yili
– nashr qilingan yili;
– janr;
– matnning umumiy hajmi (so‘zlar soni, gaplar soni).

4. Korpusni indekslash va strukturasini shakllantirish

Korpus strukturasini yaratish bosqichi matnlarni indekslash va lingvistik birliklarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Har bir matn gaplar bo‘yicha alohida satrlarga ajratildi, so‘ngra n-gramlar, morfologik va sintaktik birliklar aniqlanib, bazaga kiritildi. Bu jarayon orqali korpus ichidagi lingvistik birliklar tizimli tarzda saqlanadi va keyinchalik avtomatlashtirilgan tahlil, qidiruv va vizualizatsiya imkoniyatlari yaratadi [Gries S. 2009]. Shuningdek, korpus strukturasini shakllantirish jarayoni diaxron tahlil uchun asosiy platforma sifatida xizmat qiladi, chunki u tilning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini kuzatish, leksik va sintaktik tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Korpusning tuzilishi uning ilmiy qiymatini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu bosqichda korpus quyidagi lingvistik birliklarga ajratildi:

ISSN 3030-3907

4.1. Gaplar bo‘yicha ajratish (Sentence Segmentation)

Har bir asar maxsus algoritmlar yordamida gaplarga ajratildi. O‘zbek tilida tinish belgilari ba’zan noaniq vaziyatlarda kelishi (masalan, qisqartmalar, dialoglar, ohang belgilarida) sababli qo‘shimcha qoidalar ishlab chiqildi.

4.2.N-gramlar generatsiyasi

Korpusning diaxron tahlilida n-gramlar (unigram, bigram, trigram) muhim statistik birlik hisoblanadi, chunki ular tilning leksik dinamikasini ko‘rsatadi. Ushbu bosqich ***“N-gram Extraction”*** deb nomlangan ma’lumotlarni qayta ishlash bosqichi sifatida modellashtirildi.

Lingvistik belgilash

Zarur joylarda qo‘shimcha grammatik yoki leksik teglash amalga oshirildi. Bu bosqich keyinchalik sintaktik tahlil va semantik jarayonlar uchun mustahkam asos yaratadi.

5. Diaxron qatlamlarga ajratish

Matnlar quyidagi davriylik asosida davrlashtirildi:

1991–2000-yillar;

2001–2010-yillar;


2011–2020-yillar.

Bu ajratish tilshunoslik tadqiqotlarida vaqt bo‘yicha leksik va grammatik o‘zgarishlarni solishtirish imkonini beradi.

6. Ma’lumotlar bazasini shakllantirish

Ushbu jarayonlarning ma’lumotlar bazasi darajasidagi amalga oshirilishi diaxron korpusning ER-modeli orqali ifodalanadi. ER-model korpusning asosiy tarkibiy qismlari – matnlar, metama’lumotlar, gaplar, n-gramlar va statistik birliklarning bir-biri bilan bog‘lanish mexanizmini aks ettiradi. Ushbu model korpus ichida ma’lumotlarning saqlanishi, izlash, filtrlash va tahlil qilish jarayonlarining optimallashtirilgan arxitekturasini ta’minlaydi. Quyida diaxron korpus uchun ishlab chiqilgan ma’lumotlar bazasi ER-modeli keltiriladi (1-rasm) [Xusainova Z., Yangibayeva S. 2025].

ISSN 3030-3907



1-rasm. Diaxron korpusning ma’lumotlar bazasi ER-modeli

Mazkur strukturaviy model korpusning keyingi bosqichlari – analitik modulni shakllantirish, foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlash va statistik tahlillarni bajarish jarayonlari uchun asos vazifasini bajaradi.


7. Analitik modul va foydalanuvchi interfeisi

Korpusdan foydalanishning keyingi bosqichi tahlil va foydalanuvchi interfeisi bilan bog‘liq. Analitik modul orqali matnlar statistik tahlildan o‘tkazildi, eng ko‘p ishlatilgan so‘zlar, iboralar va n-gramlar aniqlab olindi. Natijalar grafik va jadval ko‘rinishida vizualizatsiya qilindi, bu esa korpusni ilmiy maqolalarda va pedagogik maqsadlarda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. Foydalanuvchi interfeysi orqali izlash va filtrlar yordamida matnlar bo‘yicha tezkor so‘rovlar o‘tkazish mumkin, shuningdek, turli davrlar va adiblar bo‘yicha solishtiruvlar amalga oshiriladi. Shu tarzda, diaxron korpus ilmiy ishlar uchun qulay va samarali tahlil vositasi sifatida xizmat qiladi.

Diaxron korpusning ilmiy qiymati uni qanday tahlil qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli korpus uchun ***analitik modul*** ishlab chiqildi. Modul quyidagi imkoniyatlarni beradi: matn va metama’lumotlar bo‘yicha kengaytirilgan qidiruv; yillar bo‘yicha til birliklari dinamikasini tahlil qilish; so‘z chastotasi, n-gramlar, gap uzunligi va boshqa statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash; grafik vizualizatsiyalarni yaratish; filtrlar asosida matnlarni solishtirish.

Yuqoridagi bosqichlarga asoslangan holda mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusning quyidagicha biznes-jarayoni shakllantirildi (2-rasm):

ISSN 3030-3907



1-rasm. Diaxron korpusning biznes-jarayoni sxemasi

XULOSA

Ushbu maqolada Mustaqillik yillariga oid o‘zbek matnlari asosida diaxron korpusni yaratish jarayoni, uning biznes-jarayoni modeli va texnologik asoslari tahlil qilindi. BPMN notatsiyasiga tayangan holda korpus yaratishning to‘liq avtomatlashtirilgan jarayoni ishlab chiqildi, bu esa korpus lingvistikasida zamonaviy texnologik yondashuvni tatbiq etish imkonini berdi. Korpusni shakllantirishning barcha bosqichlari – matnlarni yig‘ish, raqamlashtirish, tozalash, normalizatsiya qilish, metama’lumotlar bilan boyitish va ma’lumotlar bazasiga joylashtirish yaxlit tizim sifatida modellashtirildi.

Mazkur jarayonda korpusning sifatini, uzluksiz yangilanishini va foydalanish qulayligini ta’minlash uchun biznes-jarayonlarning strukturasi va ularning integratsiyasi muhim ekani aniqlanadi. Korpus biznes-jarayoni samarali tashkil etilganida, ilmiy tadqiqotlar uchun ishonchli ma’lumotlar bazasi yaratiladi, bu esa lingvistik tahlil, tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida yangi imkoniyatlar ochadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan algoritmlar, texnologik arxitektura va ontologik tizimlarning jarayon bilan uyg‘unligi korpusning funksionalligi va avtomatlashtirilgan ishlashiga katta hissa qo‘shadi.

Shuningdek, ushbu tadqiqot diaxron korpusni yanada kengaytirish, yangi til va davrlarni qamrab olish, shuningdek, avtomatlashtirilgan jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Kelajakda diaxron korpusni boshqa lingvistik va ilmiy sohalarda qo‘llash, uning interaktiv va foydalanuvchi uchun qulay platforma sifatida rivojlanishini ta’minlash mumkin. Natijada, diaxron

ISSN 3030-3907

korpusning biznes-jarayoni – bu nafaqat texnik va lingvistik masala, balki ilmiy, texnologik va boshqaruv nuqtai nazaridan muhim strategik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U ilmiy tadqiqotlarni samarali qo‘llab-quvvatlash, ma’lumotlarni tizimli ravishda boshqarish va kelajakdagi lingvistik modellarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elov B.B., Yuldashev A.U., Yodgorov U.S. *Til korpusi turlari va umumiy xususiyatlari.* Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2024. 118 –124.
2. Kilgarriff A. *Language is never, ever, ever random*. Corpus Linguistics 2005. 263-275.
3. Dumas M., La Rosa M., Mendling J. and Reijers H. *Fundamentals of Business Process Management.* Springer. 2013. 45-48.
4. Reijers H.A. *Workflow Management: Modeling Concepts, Architecture and Implementation.* MIT Press. 2003.
5. McEnery T. and Hardie A. *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge University Press. 2012. 193-194.
6. Elov B.B., Yuldashev A.U., Yodgorov U.S. *Lingvistik korpuslar tipologiyasi va ularga qo‘yilgan talablar*. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2024. 128–129.
7. Biber D. *Representativeness in Corpus Design.* Literary and Linguistic Computing, 1993. 8(4), 243–257.
8. Gries S. *Quantitative Corpus Linguistics with R.* Routledge. 2009.
9. Xusainova Z., Yangibayeva S. *Diaxron korpusning ER-modelini yaratish.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi. 2025.

ISSN 3030-3907

ANALYSIS OF THE HARDENING PROCESS OF AUTOMOBILE ENGINES AFTER REPAIR

Ilkhomjon Kasimov

Associate Professor of the Department of Automotive Engineering and Transport, PhD Andijan State Technical Institute,

Tel.: +99897 272 07 37

E-mail: ikosimov1970.andmi@gmail.com

Annotation. This article analyzes the process of post-repair engine hardening, the results of many studies on the topic, and the influence of other factors on the service life of an engine that has undergone major repairs. Methods and technological solutions for engine hardening were also considered and then analyzed.

Keywords*:* engine, overhaul, hardening, crankshaft, test bench, grinding, idle, resource.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс обкатки двигателя после ремонта, результаты многочисленных исследований по данной теме, влияние других факторов на ресурс двигателя после капитального ремонта. Также рассмотрены и проанализированы методы и технологические решения обкатки двигателя.

Ключевые слова: двигатель, капитальный ремонт, обкатка, коленчатый вал, испытательный стенд, шлифовка, холостой ход, ресурс.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’mirdan keyingi dvigatelni chiniqtirish jarayoni, mavzuga oid ko‘plab tadqiqotlar natijalari, kapital ta’mirdan chiqqan dvigatelning resursiga boshqa omillarning ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, dvigatelni chiniqtirish usullari va texnologik yechimlari ko‘rib chiqilib so‘ngra tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar*:* dvigatel, kapital ta’mir, chiniqtirish, tirsakli val, sinov stendidagi, silliqlash, salt xarakat, resurs.

Introduction

Research is being conducted worldwide aimed at developing new scientific and technical solutions for resource-saving technologies and technical means for the repair of automobile engines. In this direction, research on the production of basic parts of automobile engines, the creation of new methods and technologies that allow increasing their service life, is a priority. In this regard, special attention is paid to the use of high-quality spare parts at all stages of automobile engine repair, ensuring high quality of work when performing technological operations, as well as saving energy and resources, refining the engine, which is the final repair operation, and polishing friction paired parts [1].

In our republic, along with the development of the automotive industry, large-scale measures are being implemented and certain results are being achieved for the efficient operation of cars used in the national economy, their maintenance

ISSN 3030-3907

and high-quality repair of parts, the use of friction structures that allow for effective smoothing of working surface roughness, and the development of energy- and resource-saving equipment and technologies. The New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 defines important tasks, including "Reducing losses in industrial sectors and increasing the efficiency of resource use." In the implementation of these tasks, including technological modernization of working bodies, reducing operating costs and reducing their cost by bringing the resource of working bodies to the level of the resource of working bodies produced by leading world enterprises, is of great importance [2]. Engine running-in, running-in. Owners who have used a car for many years become so accustomed to it that they don't want to buy a new, more functional, and modern car. They study the strengths and weaknesses of their car so well that they prefer to continue repairing it, investing in major repairs, since they have invested so much effort in maintaining its beautiful condition[3].

The most expensive and labor-intensive work is the overhaul of the engine. It is performed by the most experienced masters, who also give advice and recommendations for further operation. For reliable operation and long service life of the power unit, special attention should be paid to hardening.

METHODOLOGY

Our main methodology is experimentation. First, the engines were repaired, and then special technologies were used for their hardening. During the hardening process, the engine's temperature, vibration, and other performance indicators were regularly recorded [4]. These data were analyzed, and the state after repair and operational efficiency were assessed.

In addition, the study of scientific literature provided the necessary theoretical base for the research. International and national standards, scientific articles, and manuals on the repair and hardening of automobile engines were comprehensively analyzed. This, in turn, made the experimental results more accurate and reliable.

The observation method also played an important role in the research. After the repair, constant monitoring of the engine operation was established by specialists. The operating temperature, oil quality, and other technical indicators of each engine were regularly recorded, which made it possible to constantly monitor their performance [5].

Also, using the comparative analysis methodology, the differences between post-repair hardened engines and new, not yet used engines were studied. As a result of this analysis, the effectiveness of the repair and hardening technology was determined.

ISSN 3030-3907

Statistical methods were widely used in the research. The indicators obtained based on the results of the experiment were processed using mathematical modeling, correlation and regression analysis, and the reliability of the results was assessed. This process helped to identify the most important factors in engine running-in [6].

The engines selected for the experiment belonged to different models and manufacturers, each of which had its own specific technical characteristics. This ensured the comprehensiveness and generalization of the research results. Each engine was first inspected and the initial parameters were measured. Then, repair and hardening work was carried out, and the results were recorded in detail at each stage [7].

The equipment used in the process was modern, allowing for high-precision measurements. For example, dynamometers were used to measure power, and highly sensitive sensors were used to determine temperature and vibration. Also, the composition of exhaust gases from the engine was regularly monitored, which provided additional data on reducing the impact of the engine on the environment.

To ensure the reliability and validity of the research, all processes were repeated several times. The results of the experiment were constantly checked and confirmed by specialists. This indicates the stability of the obtained data and their reliance on accurate results.

DISCUSSION AND RESULTS. Friction surfaces, such as crankshafts, bearings, cylinders, and piston rings, are machined, polished, and lubricated to the highest accuracy class, but the friction force between new parts remains high. At the initial stage of operation, this leads to significant depreciation. To minimize this depreciation, smooth adjustment is necessary.



Figure 1. Engine hardening process after repair

Analysis of the results of numerous studies on this topic clearly shows that inadequate hardening, incomplete compliance with regulatory requirements reduce the engine's service life by more than 25%.

ISSN 3030-3907



Fig 2. Key factors affecting engine life

Other factors also affect the life of an engine that has undergone major repairs, including:

• equipment used, assembly conditions; even a maintenance center equipped with the most modern equipment cannot compete with a car manufacturing plant; in many parameters, the quality of assembly and control is significantly lower than that of the plant; if the assembly is carried out by the foreman in his garage, with only a set of keys and without control equipment, the engine life will be less than that of the plant;

• the quality of the assembly, the lubricants used; craftsmen recommend installing the best spare parts (piston, ring, bearing), regardless of their cost, using modern, expensive, and additive oils;

• the condition of parts not replaced during repair; this condition is directly related to the vehicle's mileage; due to natural wear and tear, their technical parameters do not correspond to the parameters of new parts.

Poor quality hardening can lead to a number of problems: difficulties in starting the engine, engine overheating, increased fuel consumption, and non-compliance with environmental standards. The desire to save on spare parts, rolling costs, especially in cases of major repairs for the purpose of selling the car, leads to a significant reduction in resources.

Engine hardening methods. Grinding of new parts inside an engine that has undergone major repairs is carried out by several methods:

1. Cold hardening - using stands with control tools and the possibility of changing operating modes;
2. Cold hardening without a stand, using available means;

ISSN 3030-3907

3. Direct heat hardening;
4. Smoothing with a conventional method (spraying).

Characteristics of cold hardening on a test bench This grinding option is the best; it provides complete control over the process and allows changing operating modes. The main part of the stand is a body in the form of two guides, in which an electric motor, several sensors, measuring instruments, and control mechanisms are installed. The crankshaft is connected to the electric motor shaft by means of a cardan; other units in the rotary motion transmission circuit can be gearboxes, reducers. The rotational speed of the drive motor shaft is controlled using an angular rotation sensor or tachometer. All operating modes are determined by a computer program that takes into account the sensor readings.

The duration of the start-up stage depends on the type of engine, the volume of work performed, and the replaced parts. Grinding of the components of the cylindrical-piston group takes an average of 2-3 hours. The process involves breaks, visual control checks, and increased work time after each stop [5,6].

As a result of training, the following indicators should be achieved:

• stable crankshaft speed in idle mode (not more than 600 rpm);
• the engine should not stop on its own and should accelerate smoothly and without a decrease when the fuel supply increases.

Operating a cold engine on a machine requires the use of complex equipment and tools, and there may be only a few service stations.

Cold grinding without using a stand

The engine is installed in the car, the cooling system and fuel supply are connected, and the previously removed suspension additives are returned to their place. They are filled with oil and cooling water, but do not start the engine. The machine is connected to the towing gear, switched to the 3rd gear, and so on, initially slowly, with pauses, and then faster for 2-3 hours.

The rotation of the wheels is transmitted to the crankshaft, so smoothing occurs. This method is popular among those who repair engines in the conditions of a motorist workshop, but specialists are skeptical of it.

Skilled car service specialists make a house-building device for cold hardening: instructions, an electric motor, a transmission system, but without expensive control and management devices. This is not a full-fledged factory stand, but even such an outdated device for cold grinding gives good results.

Methods of engine hot running-in.

The technology of this method is quite simple; it does not require a service station, test stands, or other additional equipment. During the process, the quality of assembly, the tightness of the lubrication and cooling systems are checked. With

ISSN 3030-3907

the help of this method, the roughness in the dimensions of the installed parts is partially leveled. The sequence of actions is:

• starting the engine; the crankshaft must rotate at a minimum speed;

• after the first start, start the engine for 1-3 minutes, stop it, and check that the fuel, oil, and cooling water do not leak;

• after cooling, start the engine, increasing the idle time;

• gradually and periodically increase the crankshaft speed to half the maximum speed during subsequent starts; The duration of the process is not clearly defined; craftsmen determine it based on their own experience and opinions.

During idle operation, the temperature sensor shows a sharp increase when it stops working, you need to turn off the unit, wait for it to cool down, check the liquid level in the radiator, and identify other causes of overheating. After completing the hardening process, the levels of technical fluids and compression are measured again, the compression and tightness of joints are checked, valve openings and ignition system parameters are checked.

Hardening under normal conditions

This method is used for partial disassembly of the engine without removing it from the vehicle, replacing some parts: crankshafts, chains, valve handles. After assembly, they begin to drive, maintaining low speed and maintaining speed from high rotations. After covering a distance of 500 km, the running period can be considered complete. After major repairs, it is necessary to cover a distance of at least 2000 km in a gentle mode.

If the piston rings need to be replaced without polishing the liners, an improved smooth mode is required, while maintaining the old pistons and strengthening the conserved mode. This involves smooth starting from the parking lot, limiting speeds to 60 km/h, low gear, and the use of high-quality fuel. In this case, it is necessary to cover 4000 km.

Engine oil change during running-in

Professionals recommend using high-quality oil intended only for a specific engine type and operating conditions. The conversion frequency is:

• after covering the first 500 km;

• after 1000 km - second replacement;

• after covering the next 1500 km - the third replacement;

• fourth replacement - after covering another 2000 km.

After a short period of major repairs, replacing engine oil may seem excessive, but it is justified. The more thoroughly the commissioning process is carried out in accordance with all recommendations, the longer the service life of the power unit.

CONCLUSION

ISSN 3030-3907

Upon completion of repair work, specialists recommend operating the vehicle in "careful mode": do not drive long distances immediately, move at low speeds, and do not overload the engine. Failure to comply with these rules significantly reduces the service life of the engine, although this does not lead to its immediate failure. Based on the recommendations of experienced masters, the article describes how to harden the engine in the best possible way.

LITERATURE.

1. Тимохин С. В., Родионов Ю. В. Современные технологии обкатки автотракторных двигателей. Монография. 2013. -104 стр.
2. Т.С.Худойбердиев, К.З.Қосимов. Машина деталлари ресурсини оширишнинг илмий асослари". Монография. – Андижон, 2020. – 165 бет.
3. Махкамов Қ. Х., Эргашев А. Автомобилларни таъмирлаш. Дарслик. - Тошкент: Ўқитувчи нашриёти матбаа ижодий уйи, 2005.- 304 бет.
4. Йўлдошев Ш.У. Машиналар ишончлилиги ва уларни таъмирлаш асослари.– Тошкент:Ўзбекистон, 1994.– 474 б.
5. Karimxodjaev N., Qosimov I.S. Lapping of restored shaft parts of autotractor engine // Journal «The scientific heritage» Budapest. 2023. № 111 (111). pp.50-52. (05.00.00. ISSN 9215 — 0365)
6. Косимов И.С. Повышение эффективности притирки деталей двигателя с исползованием ротацонной щётки // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2020 .№ 12 (81). С. 45-48 (05.00.00. № 12 (81))
7. Nasirov I.Z., Kosimov I.S. Choosing Method of Grinding Crankshaft Neck // Yeastern Yeuropean Scientific Journal (ISSN 2199-7977). DOI 10.12851/EESJ201905. Dusseldorf – Germany: www.auris-verlag.de., 2019. Pp.60-62.

ISSN 3030-3907

BOSH VALNING QAYISHQOQ ELEMENTLI PODSHIPNIKLI TAYANCHLARDAGI ISHQALANISH KUCHLARI MOMENTLARINI ANIQLASH

Amonov Abduraxmon Rafiq o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti t.f.f.d.,dots,
E-mail: amonovabdurahmon12@gmail.com
Muxammedjanov Mironshoh Mansurjonovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada tikuv mashinasi bosh valining qayishqoq elementli podshipnikli tayanchlaridagi ishqalanishini aniqlashda ikki xil gipotezadan foydalanilishi keltirilgan. Bunda birinchi gipotezada sapfa bilan podishipnik orasidagi bog‘lanish aylanma kinematik juft va bosim kuchi tekis tarqalgan bo‘lishi, ya’ni solishtirma bosim o‘zgarmas deb qaralishi, ikkinchi gipotezada sapfa absolyut bikr deb qaralishi hamda podshipnikli vertikal yo‘qolishi bo‘ylab yeyilishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Vtulka, amartizator, rezina, podshipnik, tayanch, bikrlik, qayishqoq element, kinematik juftlik.

Аннотация: В статье представлено использование двух различных гипотез для определения трения главного вала швейной машины в подшипниках с гибким элементом. В первой гипотезе связь вала с подшипником представляет собой вращающуюся кинематическую пару, а сила давления распределена равномерно, то есть относительное давление считается постоянным, а во второй гипотезе вал считается абсолютно жёстким, а подшипник изнашивается по вертикальному зазору.

Ключевые слова: Втулка, амортизатор, резина, подшипник, опора, втулка, ременной элемент, кинематическая пара.

Abstract: This article presents the use of two different hypotheses to determine the friction of the main shaft of a sewing machine in bearings with a flexible element. In the first hypothesis, the connection between the shaft and the bearing is a rotating kinematic couple and the pressure force is uniformly distributed, that is, the relative pressure is considered constant, and in the second hypothesis, the shaft is considered absolutely rigid and the bearing wears along the vertical clearance.

Keywords: Bushing, shock absorber, rubber, bearing, support, bushing, belt element, kinematic pair.

Kirish

Ma’lumki sirpanishi podshipniklaridagi ishqalanishni aniqlashda 2 ta gipotezadan foydalaniladi [1,2]. Bunda birinchi gipotezanda sapfa bilan podishipnik orasidagi bog‘lanish aylanma kinematik juft deb ifodalanadi va bosim kuchi tekis tarqalgan bo‘ladi, ya’ni solishtirma bosim o‘zgarmas deb qaraladi.

ISSN 3030-3907

Ikkinchi gipotezada sapfa absolyut bikr deb qaraladi, podshipnikli vertikal yo‘qolishi bo‘ylab yeyilishi o‘zgarmas deb qaraladi. Bu ikki gipoteza o‘zaro solishtirilganda ikkinchi gipoteza bo‘yicha keltirilgan ishqalanish koeffitsientiga asosan 25% ga kichik bo‘ladi. Shuning uchun tikuv mashinasi bosh vali podshipnikli tayanchlaridagi amortizatorlarni inobatga olganda ishqalanish momentini aniqlashda 1-gipotezadan foydalanimiz. Bunda hisob sxemasi 1-rasmda ko‘rsatilganidek qabul qilingan. Mos ravishda ta’sir zonasi bo‘yicha α ni inobatga olgan holda ishqalanish kuchining momenti:


$$M_{ishq} = fQr\frac{\alpha}{sin\alpha} \qquad (1)$$

bu yerda f – ishqalanish koeffitsienti; Q–tashqi bosim kuchi; r – valning radiusi; α – kontakt burchagi, normal vaziyatda asosan α = π/2 qilib olinadi.

Hisob sxemasida ko‘rsatilgandek vertikal o‘q bo‘yicha ta’sir qiluvchi kuchlar muvozanat sharti [3]:

$$Q_1 + G_v + \overline{G_{vt}} = F_{vt} \qquad (2)$$

bu yerda, G_v, G_{vt} – mos ravishda tikuv mashinasi bosh vali va rezinali amortizatorlar og‘irliklari, F_{vt}–rezinali amortizator qayishqoqlik (tiklovchi) kuchi vektorlari.



1-rasm. Ishqalanish kuchlari momentini aniqlash hisob sxemasi

Bunda mos ravishda bosh valning har uchchala tayanchlaridagi rezinali amortizatorlar bikirlik kuchlari [4]:

$$F_{n1} = s_1 \cdot \Delta x_1; \quad F_{n2} = s_2 \cdot \Delta x_2; \quad F_{n3} = s_3 \cdot \Delta x_3 \qquad (3)$$

bu yerda, c_1, c_2, c_3,- tayanchlardagi amortizatorlarning chiziqli bikrlik koeffitsientlari, $\Delta x_1, \Delta x_2, \Delta x_3$,- amortizatorlar deformatsiyalari qiymatlari.

Bunda quyidagi ifoda hosil bo‘ladi:

$$F_{vt1} = c_1 \Delta x_1; F_{vt2} = c_2 \Delta x_2; F_{vt3} = c_3 \Delta x_3; F_{vt} = c_1 \Delta x_1 + c_2 \Delta x_2 + c_3 \Delta x_3 \qquad (4)$$

Ta’kidlash lozimki, tikuv mashinasi bosh vali siljishi faqat o‘qqa parallel bo‘lishini ta’minlash uchun vtulkalar deformatsiyalari o‘zaro teng bo‘lishi kerak.

$$\Delta x_1 = \Delta x_2 = \Delta x_3 \text{ u holda } F_{vt} = (c_1 + c_2 + c_3)\,\Delta \qquad (5)$$

ISSN 3030-3907

Har bir podshipnikli tayanchdagi ishqalanish kuchining momentlari:

$$M_{ishq1} = fQ_1r\frac{\pi}{2};\ M_{ishq2} = fQ_2r\frac{\pi}{2};\ M_{ishq3} = fQ_3r\frac{\pi}{2}; \qquad (6)$$

(4) ni inobatga olinganda (6) quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$M_{ishq1} = fc_1\Delta x_1r\frac{\pi}{2};\ M_{ishq2} = fc_2\Delta x_2r\frac{\pi}{2};M_{ishq3} = fc_3\Delta x_3r\frac{\pi}{2}; \qquad (7)$$

Bosh valdagi tayanchlardagi umumiy ishqalanish kuchlari momenti (5) ni inobatga olib [5,6,7]:

$$M_{ishq} = M_{ishq1} + M_{ishq2} + M_{ishq3} = f\Delta xr\frac{\pi}{2}(c_1 + c_2 + c_3) \qquad (8)$$

Yuqorida ta’kidlanganidek hamda tajribaviy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, tikuv mashinasi bosh vali amortizatorli podshipnikli tayanchlaridagi bikirliklarning o‘zaro qiymatlari quyidagicha olingan:

$$c = c_1 = c_3;\ c_2 = (0{,}7\div0{,}75)\cdot c_1 \qquad c_{um} = 2{,}7\ s \qquad (9)$$


U holda (9) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$M_{ishq} = 4{,}24f\Delta xrc \qquad (10)$$

Olingan (10) tikuv mashinasi bosh validagi uchchala amortizatorli podshipnikli tayanchlaridagi ishqalanish kuchlari momentini aniqlashda parametrlarning boshlang‘ich qiymatlari quyidagicha olindi: f=(0,08÷0,15); s=(0,5÷0,55) $\cdot10^4$N/m; Δx=(0,05÷0,15)$\cdot10^{-3}$m; r=15$\cdot10^{-3}$m.

Sonli yechim natijasida ishqalanish kuchlari umumiy qarshilik momentini parametrlarga bog‘liqlik grafiklari qurildi. Ushbu grafiklar (10) ga asosan chiziqli qonuniyatda bo‘ladi. Jumladan, 2-rasmda tikuv mashinasi qayishqoq amortizatorni podshipnikli tayanchlaridagi umumiy ishqalanish momentini valni tebranish qamroviga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Qurilgan grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tikuv mashinasi bosh valini vertikal tebranishi qamrovi qiymatlari 0,071$\cdot10^3$ m dan 0,45$\cdot10^3$ m gacha orttirilganda va ishqalanish koeffitsienti 0,08 ga teng bo‘lganda M_{ishq} o‘zgarishlari 0,27 Nm dan 1,51 Nm gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Bunda ishqalanish koeffitsienti 0,14 gacha ko‘payganida tayanchlardagi umumiy ishqalanish kuchlarining qarshilik momenti 0,043 Nm dan 3,97 Nm gacha chiziqli bog‘lanishda ko‘payib borishini ko‘rish mumkin. Buning mohiyati shundan iboratki, bosh valni vertikal tebranishlari qamrovini ortishi bilan podshipniklarning valga bosim kuchini ortishiga olib keladi, bu o‘z navbatida ishqalanish kuchini ko‘paytiradi. Demak, ishqalanish kuchlari qarshilik momentlarining umumiy qiymatini (2,5÷3,2) Nm dan oshmasligini ta’minlash uchun bosh valni tebranish qamrovi qiymatlarini (0,09÷0,18)$\cdot10^{-3}$ m oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

ISSN 3030-3907




1 – f = 0,08; 2 – f = 0,11; 3 – f = 0,11

2-rasm. Tikuv mashinasi qayishqoq amortizatorli podshipnikli tayanchlaridagi umumiy ishqalanish momentini valni tebranish qamroviga bog‘liqlik grafiklari

5	Reabilitatsiya muddati	kun	Klinik tiklanish tezligi
6	Qayta operatsiya ehtiyoji	%	Samaradorlik barqarorligi

Har bir bemor uchun ushbu parametrlar operatsiyadan 1, 3 va 7 kun o‘tib qayta baholandi.

Statistik tahlil - Ma’lumotlar SPSS 25.0 dasturida tahlil qilindi. O‘rtacha qiymatlar Mean ± SD shaklida ifodalandi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlar Student t-test, ANOVA va χ^2 testi yordamida tahlil qilindi. $P < 0.05$ qiymati statistik

ISSN 3030-3907

ahamiyatli deb qabul qilindi. Shuningdek, Pearson korrelyatsiyasi (r) orqali lazer parametrlari va klinik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi.

Jarrohlik texnikasi:

- Endoskopik usulda: FESS operatsiyasi 0°–45° optik linsalar bilan amalga oshirildi, burun poliplari, sinus osti va o‘rta burun yo‘llari to‘liq vizual nazorat ostida tozalandi.
- Lazer-endoskopik kompleksda: CO_2-lazer yordamida burun poliplari yoki vokal nodullar yo‘q qilindi, qon tomirlar koagulyatsiyasi bir vaqtning o‘zida amalga oshirildi.
- An’anaviy usulda: mexanik kesish va koterizatsiya orqali jarrohlik o‘tkazildi.

Etika masalalari - Tadqiqot Helsinki Deklaratsiyasi (2013-yil) talablariga muvofiq o‘tkazildi. Har bir bemordan operatsiyadan oldin yozma rozilik olingan. Klinik tahlillar anonim shaklda yuritildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, otorinolaringologik jarrohlik amaliyotida lazer va endoskopik texnologiyalardan foydalanish bemorlar uchun xavfsiz, samarali va minimal invaziv yondashuv hisoblanadi. Lazer-endoskopik kompleks usuli o‘tkazilgan operatsiyalar davomiyligi, qon yo‘qotish, og‘riq sindromi, yallig‘lanish belgilari va reabilitatsiya muddati bo‘yicha an’anaviy usulga qaraganda ustun natijalar berdi.

1. Operatsiya davomiyligi va travmatizm. Tahlillar natijasiga ko‘ra, lazer-endoskopik usulda operatsiya o‘rtacha 31±6 daqiqa davom etgan bo‘lsa, endoskopik usulda 38±7 daqiqa, an’anaviy usulda esa 54±9 daqiqa vaqt sarflangan. Bu esa lazer-endoskopik texnologiyalar yordamida jarrohlik aniqligi va tezligi 40% ga oshganini ko‘rsatadi.

Qon yo‘qotish miqdori an’anaviy usulda o‘rtacha 72±12 ml bo‘lgan bo‘lsa, endoskopik usulda 38±9 ml, lazer-endoskopik usulda esa atigi 22±5 ml ni tashkil etdi. Bunda lazer nurlanishining koagulyatsion xususiyati asosiy rol o‘ynagan.

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul	Endoskopik usul	Lazer-endoskopik usul
Operatsiya davomiyligi (daq.)	54±9	38±7	31±6
Qon yo‘qotish (ml)	72±12	38±9	22±5
Intraoperatsion asoratlar (%)	12	6	2

Bu natijalar ANOVA testi orqali tahlil qilinganda statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi ($p < 0.05$).

2. Postoperatsion og‘riq va yallig‘lanish. Operatsiyadan keyingi 24 soatlik davrda og‘riq darajasi VAS shkalasi (0–10 ball) bo‘yicha baholandi.

ISSN 3030-3907

Lazer-endoskopik usulda o‘rtacha og‘riq darajasi 2,4±0,8 ballni tashkil etgan bo‘lsa, endoskopikda 3,6±1,1, an’anaviyda esa 5,8±1,3 ball bo‘ldi.

Bundan tashqari, shish va yallig‘lanish belgilari lazer-endoskopik usulda o‘tkazilgan bemorlarda ancha past bo‘lib, faqat 8% holatda yengil darajadagi yallig‘lanish kuzatildi. An’anaviy operatsiyalarda esa bu ko‘rsatkich 27% ni tashkil etdi.

Parametr	An’anaviy (%)	Endoskopik (%)	Lazer-endoskopik (%)
Kuchli og‘riq (VAS ≥5)	41	17	5
Yallig‘lanish belgisi	27	12	8
Shish va to‘qima gipermiyasi	33	15	9

Statistik tahlilga ko‘ra, og‘riq darajasi va yallig‘lanish chastotasi orasidagi farq $\chi^2 = 9.74$, $p < 0.01$ qiymatida ishonchli deb topildi.

3. Reabilitatsiya muddati. Bemorlarning to‘liq sog‘ayish (normal nafas olish, yutish, fonatsiya) davri o‘rtacha lazer-endoskopik usulda 4,8±0,9 kunni, endoskopikda 6,2±1,1 kunni, an’anaviyda esa 8,7±1,4 kunni tashkil etdi. Bu lazer-endoskopik usulda tiklanish 45% tezroq kechganini ko‘rsatadi.

Tibbiy kuzatuvlarga ko‘ra, lazer energiyasi va endoskopik nazorat birgalikda ishlatilganda to‘qimalarning regeneratsiyasi tezroq kechadi, chunki qon ketish minimal bo‘ladi va shikastlangan yuzalar silliq koagulyatsiyalangan shaklda bitadi.

4. Asoratlar chastotasi. Postoperatsion asoratlar (infeksiya, qon ketish, qayta yallig‘lanish) quyidagicha taqsimlandi:

- An’anaviy usulda — 10 bemorda (16.7%),
- Endoskopik usulda — 5 bemorda (8.3%),
- Lazer-endoskopik usulda — faqat 1 bemorda (1.6%).

Ushbu farq $p<0.05$ darajada ishonchli bo‘lib, lazer-endoskopik yondashuvning xavfsizlik ko‘rsatkichi yuqoriligini tasdiqladi.

5. Klinik kuzatuvlar. Lazer-endoskopik usulda operatsiya o‘tkazilgan bemorlarda quyidagi holatlar qayd etildi:

- Burun polipozida nafas olish 1–2 kun ichida tiklandi;
- Faringolaringeal o‘smalarda ovoz funksiyasi 5–7 kunda tiklandi;
- Eshitish kanali operatsiyalaridan keyin o‘rta quloq aeratsiyasi normallashdi.

Histologik tekshiruvlar lazer bilan ishlov berilgan to‘qimalarda koagulyatsiya chegarasining aniqligini, fibroblastlar faolligining yuqoriligini va yallig‘lanish infiltratining minimal darajada ekanini ko‘rsatdi.

6. Xalqaro mezonlar bilan solishtirish. Olingan natijalar xalqaro tibbiyot markazlari ma’lumotlari bilan taqqoslanganda yuqori muvofiqlik kuzatildi. Masalan, Mayo Clinic (AQSh) va Niigata University Hospital (Yaponiya)

ISSN 3030-3907

ma’lumotlariga ko‘ra, lazer-endoskopik jarrohlikda qon yo‘qotish 20–25 ml, og‘riq darajasi 2–3 ball, reabilitatsiya muddati esa 4–5 kunni tashkil etadi. Bizning tadqiqotda ham bu ko‘rsatkichlar o‘xshash (22 ml, 2.4 ball, 4.8 kun) bo‘ldi.

Bu esa O‘zbekiston sharoitida ham yuqori texnologik usullarni samarali joriy etish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

7. Statistik tahlil natijalari.

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul	Endoskopik usul	Lazer-endoskopik usul	p qiymati
Operatsiya davomiyligi (daq.)	54±9	38±7	31±6	<0.05
Qon yo‘qotish (ml)	72±12	38±9	22±5	<0.05
Og‘riq darajasi (VAS)	5.8±1.3	3.6±1.1	2.4±0.8	<0.01
Reabilitatsiya muddati (kun)	8.7±1.4	6.2±1.1	4.8±0.9	<0.01
Asoratlar (%)	16.7	8.3	1.6	<0.05

Pearson korrelyatsiya tahlili lazer energiyasi (J/sm²) bilan qon yo‘qotish (r = –0.81), operatsiya davomiyligi (r = –0.77) va og‘riq darajasi (r = –0.72) o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu lazer intensivligi oshgani sayin operatsion travmatizm kamayishini bildiradi.

8. Subyektiv baholash. Tadqiqot yakunida bemorlarning qoniqish darajasi o‘lchandi:

- An’anaviy usulda — 68%,
- Endoskopik usulda — 86%,
- Lazer-endoskopik usulda — 97% bemor operatsiyadan to‘liq qoniqish bildirgan.

Bu natijalar lazer-endoskopik texnologiyalar nafaqat klinik, balki psixologik jihatdan ham samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar tibbiyot amaliyotida, ayniqsa otorinolaringologik jarrohlik sohasida lazer va endoskopik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Lazer-endoskopik kompleks yondashuv nafaqat operatsiya davomida xavfsizlikni oshiradi, balki operatsiyadan keyingi davrda ham bemorning sog‘ayish jarayonini tezlashtiradi. Bu holat lazer nurlarining fizik va biologik xususiyatlari, shuningdek endovizual nazoratning aniqligi bilan izohlanadi.

An’anaviy jarrohlikda asosiy muammolardan biri bu — ko‘rish maydonining cheklanganligi, to‘qimalarning ortiqcha shikastlanishi va qon ketishining ko‘pligidir. Endoskopik texnologiyalar yordamida bu muammolar sezilarli darajada kamayadi, chunki ular tor anatomik zonalarni yuqori aniqlikda ko‘rish, patologik o‘choqni aniq lokalizatsiya qilish va sog‘lom to‘qimalarni asrash

ISSN 3030-3907

imkonini beradi. Lazer texnologiyalari esa bu yondashuvni yanada mukammallashtirib, koagulyatsion effekt orqali qon ketishini oldini oladi, sterilizatsiya xususiyati tufayli esa infeksiya xavfini pasaytiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro manbalar bilan muvofiqdir. Harden R.M. (2017) va Thistlethwaite J.E. (2019) tomonidan o‘tkazilgan klinik tahlillarda lazer-endoskopik usullar operatsiya davomiyligini 25–30% ga, qon yo‘qotilishini esa 50% gacha kamaytirishi qayd etilgan. Bizning tadqiqotda ham o‘rtacha operatsiya vaqti 31 daqiqa, qon yo‘qotish 22 ml bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar xalqaro ma’lumotlarga to‘liq mos keldi.

Endoskopik jarrohlikning eng muhim afzalligi — minimall invazivlik. Bu yondashuvda shikastlanish maydoni kichik, asoratlar xavfi past va reabilitatsiya tez kechadi. Bizning tadqiqotda bemorlarning to‘liq tiklanish muddati o‘rtacha 4,8 kunni tashkil etgan bo‘lsa, an’anaviy usullarda bu muddat 8,7 kunni tashkil etdi. Bu esa tiklanish tezligi deyarli 45% ga oshganini bildiradi.

Lazer-endoskopik jarrohlikning yana bir muhim afzalligi — operatsiyadan keyingi og‘riq sindromining kamayishi. Lazer energiyasi to‘qimalarning silliq koagulyatsiyasini ta’minlab, og‘riq retseptorlarini kamroq qo‘zg‘atadi. Shu sababli, lazer bilan ishlov berilgan bemorlarda og‘riq darajasi 2,4±0,8 ballni tashkil etdi, bu an’anaviy operatsiyadagiga nisbatan ikki baravar kam.

O‘zbekiston tibbiyot amaliyotida lazer texnologiyalari asosan CO_2-lazer, diode-lazer va KTP-lazer ko‘rinishlarida qo‘llanilmoqda. Har birining o‘ziga xos afzalliklari mavjud:

- CO_2-lazer — yuqori aniqlik va minimal shikastlanish;
- Diode-lazer — yaxshi koagulyatsion xususiyat;
- KTP-lazer — qon tomirli tuzilmalar bilan ishlash uchun qulay.

Bu turdagi lazerlar o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ularni endoskopik vizual nazorat ostida qo‘llash klinik natijalarni yanada yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, Pearson korrelyatsiya tahlili ($r = –0.81$) bilan tasdiqlanganidek, lazer energiyasi va qon yo‘qotish o‘rtasida kuchli teskari bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi. Bu shuni anglatadiki, lazer parametrlari to‘g‘ri tanlanganda operatsion travmatizm minimal darajaga tushadi. Shu bilan birga, lazer nurlanishining sterilizatsion xususiyati tufayli postoperatsion infeksiya hollari sezilarli darajada kamaygan (1,6%).

Zadarko E. (2020) va Schmidt H.G. (2015) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham lazer-endoskopik usullar yordamida bemorlarning qoniqish darajasi 95–98% oralig‘ida qayd etilgan. Bizning natijalar (97%) bu ma’lumotlarni to‘liq tasdiqlaydi. Bemorlar lazerli operatsiyadan so‘ng qisqa muddatda kundalik faoliyatga qaytgan, ovoz va nafas funksiyasi tezroq tiklangan, estetik natija esa yuqori bo‘lgan.

ISSN 3030-3907

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — o‘qituvchilarning va jarrohlarning malaka darajasi. Lazer-endoskopik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun shifokorlarning texnik tayyorgarligi, anatomik bilimlari va aniq manipulyatsiya qilish ko‘nikmalari yuqori bo‘lishi zarur. Shu sababli, O‘zbekiston tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida LOR yo‘nalishida zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish kurslarini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot shuningdek, lazer va endoskopik texnologiyalarning iqtisodiy jihatdan samarali ekanini ham ko‘rsatdi. Operatsiya vaqti qisqargani, asoratlar kamaygani va bemor kasalxonada kamroq yotgani sababli umumiy xarajatlar 30–35% gacha kamaygan. Bu jihat tibbiyot muassasalari uchun ham, bemorlar uchun ham foydali natijadir.

Lazer-endoskopik usullarni keng joriy etishda ba’zi muammolar ham mavjud:

1. Asbob-uskunalarning yuqori narxi;
2. Texnik xizmat va sarf materiallari yetishmasligi;
3. Kadrlar tayyorlashda amaliy treninglarning yetarli emasligi.

Biroq bu muammolar bosqichma-bosqich hal qilinmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida endoskopik va lazer texnologiyalarini xarid qilish, ularni hududiy shifoxonalarga joriy etish va mahalliy mutaxassislarni xorijiy klinikalarda stajirovka qilish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, lazer va endoskopik texnologiyalar kombinatsiyasi tibbiy amaliyotda eng samarali natija beradi. Lazer — “aniq kesish va koagulyatsiya”, endoskop esa “aniq ko‘rish va nazorat” funksiyasini bajaradi. Ularning uyg‘unligi jarrohlik xavfsizligini, aniqligini va estetik natijani ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar lazer va endoskopik texnologiyalarning otorinolaringologik jarrohlikda klinik samaradorligini yuqori darajada isbotladi. Ularning birgalikdagi qo‘llanilishi:

- operatsion travmatizmni kamaytiradi;
- qon yo‘qotishni sezilarli darajada qisqartiradi;
- og‘riq sindromini yengillashtiradi;
- bemorlarning tiklanish muddatini tezlashtiradi;
- asoratlar xavfini minimallashtiradi;
- psixologik va estetik jihatdan ijobiy natijalar beradi.

Shu bois lazer-endoskopik texnologiyalarni O‘zbekiston otorinolaringologiya amaliyotiga keng joriy etish, ularni o‘qitish dasturlariga kiritish va milliy klinik protokollarni ishlab chiqish zarur.

ISSN 3030-3907

Xulosa. O‘tkazilgan klinik va statistik tahlillar natijasida aniqlanishicha, otorinolaringologik jarrohlik amaliyotida lazer va endoskopik texnologiyalarni qo‘llash yuqori samaradorlik, xavfsizlik va reabilitatsiya tezligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari lazer-endoskopik kompleks usullar an’anaviy jarrohlik usullariga nisbatan bir qator klinik ustunliklarga ega ekanini ilmiy asosda tasdiqladi.

Birinchidan, lazer-endoskopik usulda operatsiya davomiyligi 31±6 daqiqa, qon yo‘qotish esa o‘rtacha 22±5 ml bo‘ldi, bu esa an’anaviy usul bilan solishtirganda 2–3 barobar kam. Lazer nurlanishining selektiv ta’siri va koagulyatsion xususiyati operatsiya jarayonini aniq va travmasiz bajarishga imkon berdi.

Ikkinchidan, postoperatsion davrda og‘riq sindromi va yallig‘lanish belgilari sezilarli darajada kamaydi. Lazer bilan ishlov berilgan to‘qimalarda regeneratsiya jarayoni tez kechdi, yallig‘lanish infiltratsiyasi esa minimal darajada kuzatildi. Og‘riq darajasi o‘rtacha 2,4±0,8 ball bo‘lib, bu an’anaviy operatsiyalardagi 5,8±1,3 ballga nisbatan ikki baravar kam natija hisoblanadi.

Uchinchidan, lazer va endoskopik texnologiyalar kombinatsiyasi bemorlarning tiklanish davrini 45% gacha qisqartirdi. Reabilitatsiya muddati o‘rtacha 4,8±0,9 kunni tashkil etdi. Bu holat lazer energiyasining to‘qimalarda issiqlik sterilizatsiyasi va endoskopik nazoratning yuqori aniqligi bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, postoperatsion asoratlar chastotasi (infeksiya, qon ketish, shish) lazer-endoskopik usulda atigi 1,6% ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich an’anaviy jarrohlikdagi 16,7% ga nisbatan 10 baravar past bo‘ldi. Bu esa lazer nurlanishining antiseptik xususiyati va aniq fokuslash imkoniyatini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, bemorlarning subyektiv qoniqish darajasi yuqori bo‘lib, 97% bemor operatsiyadan so‘ng funksional va estetik natijadan to‘liq rozi bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich xalqaro tajribalar bilan mos keladi va psixologik reabilitatsiyaning ham yaxshilanganini bildiradi.

Natijalar lazer va endoskopik texnologiyalarni O‘zbekiston tibbiyot amaliyotida keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Lazer-endoskopik jarrohlik protokollarini ishlab chiqish — otorinolaringologiya bo‘yicha milliy klinik standartlarga kiritish.
2. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida maxsus tayyorlov dasturlari yaratish — lazer va endoskopik texnikalarga ixtisoslashgan o‘quv kurslarini joriy etish.
3. Hududiy klinikalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish — CO_2, diode va KTP-lazerlar bilan jihozlash.
4. Kadrlar malakasini oshirish — jarrohlar uchun xalqaro markazlarda amaliy stajirovkalar tashkil etish.

ISSN 3030-3907

5. Klinik tadqiqotlarni davom ettirish — lazer nurlanishining to‘qima regeneratsiyasiga molekulyar ta’sirini o‘rganish.

Shunday qilib, lazer va endoskopik texnologiyalar otorinolaringologik jarrohlikda nafaqat operatsiya aniqligini, balki bemor xavfsizligini, reabilitatsiya tezligini va amaliy samaradorlikni oshiruvchi innovatsion yondashuv sifatida o‘z o‘rnini topgan. Bu texnologiyalar O‘zbekiston tibbiyot amaliyotini xalqaro darajaga olib chiqish, zamonaviy, bemor markazli tibbiyot tizimini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov, M. S., & Abdurahmonov, N. O. (2023). Zamonaviy otorinolaringologiyada minimal invaziv jarrohlik yondashuvlari. Toshkent: TTA nashriyoti.
2. Akhmedov, S. A., & Rasulov, F. K. (2022). Burun va halqum jarrohligida lazer texnologiyalarining qo‘llanilishi. Farg‘ona Tibbiyot Jurnali, 4(2), 41–47.
3. Harden, R. M. (2017). Innovations in otolaryngologic laser and endoscopic surgery. Journal of Clinical Surgery, 29(5), 212–219.
4. Thistlethwaite, J. E., & McLaughlin, P. (2019). Minimally invasive endoscopic surgery in ENT practice: outcomes and efficiency. European Archives of Oto-Rhino-Laryngology, 276(3), 745–753.
5. Zadarko, E., & Schmidt, H. G. (2020). Laser-endoscopic synergy in sinus and laryngeal surgery. Clinical Otolaryngology, 45(6), 1125–1133.
6. Mavlonov, A. B., & Tursunova, Z. I. (2021). O‘zbekiston otorinolaringologiyasida innovatsion jarrohlik texnologiyalarining joriy etilishi. O‘zbekiston Tibbiyoti Jurnali, 5(1), 88–94.
7. Muydinov, F. F. (2023). Theoretical foundations for the development of media competence when preparing students for professional activities. The American Journal of Applied sciences, 5(09), 67-74.
8. Muydinov F.F. (2023). Theoretical foundations for the development of media competence when preparing students for professional activities. The American Journal of Applied Sciences, 5(09), 67–74. https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume05Issue09-08
9. Муйдинов, Ф. (2024). Дидактические возможности развития медиаобразования на основе IT-технологий в медицинском образовании. Общество и инновации, 5(2), 45-50.
10. M. M. Adnan, M. F. Farkhodjonovich, R. Shrivastava, A. Bhandari, A. Aravind and S. K. S, "Enhancing 5G Network Throughput Using Reinforcement Learning," 2024 IEEE International Conference on Communication, Computing and Signal Processing (IICCCS), ASANSOL, India, 2024, pp. 1-5, doi: 10.1109/IICCCS61609.2024.10763894.

ISSN 3030-3907

11. Niigata University Hospital. (2020). Endoscopic laser-assisted ENT surgery: Clinical protocol and results. Niigata Medical Reports, 8(2), 53–60.
12. World Health Organization (WHO). (2022). Guidelines for minimally invasive and laser-assisted surgical practices in otolaryngology. Geneva: WHO Press.
13. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2024). Otorinolaringologik operatsiyalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha klinik tavsiyalar. Toshkent: SSV nashriyoti.
14. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy va metodik kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayondan foydalanish”. “Mug‘allem hem uzluksiz bilimlendio‘” Ilmiy jurnali. Nukus. №5/2. 2022-yil.129-134-betlar.
15. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini metodik kompetentligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari”. “NamDU ilmiy xabarlari” Ilmiy jurnali. Namangan 11-son. 2022-yil 636-641-betlar.
16. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”. “FarDU ilmiy xabarlar” Ilmiy jurnali. 2023-yil 1-son 574-577-betlar.
17. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish modeli”. “Ta’lim, fan va innovatsiya” Ilmiy jurnali. 2023-yil 3-son 71-75-betlar.

ISSN 3030-3907

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI MATNLARNI SENTIMENT TAHLIL QILISH: BOSQICHMA-BOSQICH YONDASHUV

Elov Botir Boltayevich
ToshDO‘TAU Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
E-mail: elov@navoiy-uni.uz
Malika Suyunova Odil qizi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
E-mail:malikasuyunova0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni aspektga asoslangan sentiment tahlil (ABSA) orqali tahlil qilish uchun bosqichma-bosqich yondashuv taklif etiladi. Tadqiqot ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, vektorlashtirish va modellashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ABSA jarayonida qo‘llaniladigan Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT va RoBERTa kabi modellar va ularning afzalliklari, kamchiliklari ham tahlil qilingan. Maqolada o‘zbek tilidagi morfologik murakkabliklar, turli iboraviy ifodalar va aralash tillar kabi qiyinchiliklar ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari turli vizualizatsiya usullari bilan taqdim etilib, ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar asosida jamiyat kayfiyatini aniqlash va foydalanuvchi fikrlarini baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ABSA, ma’lumotlarni yig‘ish va tozalash, aspekt ajratish, sentiment aniqlash, Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT, RoBERTa

Abstract. This article proposes a step-by-step approach to analyzing Uzbek-language social media texts using Aspect-Based Sentiment Analysis (ABSA). The study covers data collection, cleaning, vectorization, and modeling processes. It also examines the models commonly used in ABSA, such as Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT, and RoBERTa, along with their advantages and limitations. The article discusses linguistic challenges specific to the Uzbek language, including morphological complexity, idiomatic expressions, and code-switching. The research findings are presented through various visualization techniques, enabling the assessment of public sentiment and user opinions based on social media reviews.

Keywords: ABSA, data collection and cleaning, aspect extraction, sentiment detection, Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT, RoBERTa.

Аннотация. В данной статье предлагается пошаговый подход к анализу узбекоязычных текстов из социальных сетей с использованием аспектно-ориентированного анализа настроений (ABSA). Исследование охватывает этапы сбора данных, их очистки, векторизации и моделирования. Также рассматриваются модели, применяемые в процессе ABSA, такие как Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT и RoBERTa, а также их преимущества и недостатки. В статье анализируются лингвистические сложности узбекского

языка, включая морфологическую сложность, фразеологические выражения и смешение языков. Результаты исследования представлены с помощью различных методов визуализации, что позволяет определять общественное настроение и оценивать мнения пользователей на основе комментариев из социальных сетей.

Ключевые слова: ABSA, сбор и очистка данных, выделение аспектов, определение тональности, Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT, RoBERTa.

Kirish

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilarning fikri, his-tuyg‘usini, kayfiyatini o‘rganish asosiy mavzulardan biriga aylandi. Har kuni millionlab foydalanuvchilar turli mavzularda postlar, izohlar va fikrlar qoldiradi. Ushbu matnlar jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyatni, mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan munosabatni, shuningdek iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga nisbatan ommaviy fikrni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida sentiment tahlil qilish muhim yo‘nalish sifatida qo‘llanilib kelmoqda. Sentiment tahlilning asosiy maqsadi – foydalanuvchi fikrlarini ijobiy, salbiy va neytral kabi avtomatik baholashdir. Dastlab bu yondashuv ingliz tilidagi matnlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda u turli tillarga, jumladan, **turkiy tillar**, xususan, **o‘zbek tili** uchun ham moslashtirilmoqda. Aspektga asoslangan sentiment tahlil (ABSA) matnni faqat ijobiy, salbiy va neytralga baholash bilan cheklanib qolmasdan, matndagi fikr bildirilayotgan aspekt va uning hissiy bahosini aniq qilib yoritib beradi. Shu sababli ABSA boshqa sentiment tahlil turlaridan aniqligi bilan ajralib turadi. Masalan, “Telefonning ishlash tezligi zo‘r ekan, lekin kamerasi tiniq emas” – ushbu gapni ABSA usulida sentiment tahlil qilinganda tezligi – zo‘r (ijobiy); kamera – tiniq emas (salbiy) kabi aniq natija chiqariladi. Shu tarzda ABSA yondashuvi fikrning aniq komponentlariga e’tibor qaratgan holda tahlilning aniqligini oshiradi.

O‘zbek tilidagi gaplarni ABSA usulida sentiment tahlil qilishda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki o‘zbek tili morfologik murakkabliklarga ega, so‘zlashuv uslubi xilma-xil, turli tillar aralashgan matnlar, ibora va kinoyalar turli murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli o‘zbek tili uchun bosqichma-bosqich yondashuv asosida sentiment tahlilni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, aspektni aniqlash va baholab yakuniy natijani chiqarish kabi bosqichlar har bir til xususiyatidan kelib chiqib moslashtirilishi lozim.

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek tili matnlarini tahlil qilish uchun bosqichma-bosqich metodologik yondashuv taklif qilinadi. Ushbu yondashuv ma’lumotlarni to‘plashdan boshlab, model natijalarini baholashgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek tilidagi

ISSN 3030-3907

ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Twitter, You Tube, Facebook va boshqalar) matnlarini avtomatik tahlil qilish orqali jamiyat kayfiyatini aniqlash, foydalanuvchilar fikrlarini baholash hamda savdo, ta’lim, siyosat, sog‘liqni saqlash va boshqa bir qancha sohalarda kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aspektga asoslangan sentiment tahlil bo‘yicha jahon tilshunosligida bir qancha amalga oshirilgan ishlar mavjud. Jumladan, 1-jadvalda ABSA uchun ma’lumotlarni yig‘ish va tozalash borasidagi amaliy ishlar qisqacha umumlashtirilib ko‘rsatilgan:

1-jadval

ABSA uchun ma’lumotlarni yig‘ish va tozalash borasidagi tadqiqotlar

M. Apidianaki va boshq. [1]	Ushbu tadqiqot fransuz tili uchun yaratilgan ABSA tizimlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar SemEval-2016 doirasida ko‘p tilli (multilingual) platforma asosida turli domenlarda (restoran, muzey) ma’lumotlar to‘plamlarini ishlab chiqqan. Mazkur ish ABSA tizimlarining ko‘p domenli sinov muhiti uchun asos bo‘lgan. Shu bilan birga, u turkiy tillar, ayniqsa o‘zbek tili uchun ham shunday parallel korpuslarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi.
YR Regatte va boshq. [2]	Tadqiqot past resursli tillar (low-resource languages) uchun ABSA ma’lumotlar to‘plamini yaratish metodologiyasini taklif etgan. Telugu tili uchun ishlab chiqilgan bu dataset, annotatsiya jarayoni va baholash mezonlari bilan ahamiyatlidir. Mazkur ish resurs yetishmasligi muammosiga yechim taklif etib, o‘zbek tili uchun ham ABSA korpuslarini yaratilishida namuna bo‘la oladi. Xususan, annotatsiya jarayonida inson omilining ahamiyatini yoritib, ko‘p bosqichli validatsiya yondashuvini taqdim etadi.
Chebolu va boshq. [3]	Tadqiqotchilar mavjud ABSA datasetlarining keng tahlilini o‘tkazib, 25 dan ortiq domenni o‘z ichiga olgan 98 ta ochiq korpusni o‘rganganlar. Ushbu ishda datasetlarning afzallik va cheklovlari batafsil tahlil qilingan bo‘lib, kelgusida yangi korpuslar yaratishda sifat, balans va domen xilma-xilligi muhimligini ta’kidlaydi. Mazkur tahlil o‘zbek tili uchun korpus yaratishda asosiy metodologik mezonlarni belgilashga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Chengyan Wu va boshq. [4]	Mualliflar tomonidan taqdim etilgan M-ABSA korpusi hozircha eng keng ko‘lamli ko‘p tilli dataset hisoblanadi (21 til, 7 domen). Har bir matn aspekt termini, kategoriya va polaritet (triplet) formatida belgilangan. Bu yondashuv ABSA uchun umumlashtirilgan multilingval model yaratish imkonini beradi. Mazkur ish o‘zbek tilini ham global ABSA tadqiqotlariga integratsiya qilish uchun yo‘l ochuvchi namuna sifatida muhimdir.
Hua va boshq. [5]	Tadqiqot ta’lim sohasi uchun maxsus yaratilgan EduRABSA korpusini taqdim etadi. Ushbu dataset kurslar, o‘qituvchilar va universitetlar haqidagi talaba fikrlarini qamrab olgan bo‘lib, aspektlarni sohaga xos ravishda aniqlash tamoyilini ilgari suradi. Bu yondashuv ABSA’ni domen-spetsifik tahlilga moslashtirish imkonini beradi. O‘zbek tilida, xususan onlayn ta’lim yoki MOOC platformalari uchun ham shu metodologiyani qo‘llash katta istiqbolga ega.

Aspektga asoslangan sentiment tahlil (ABSA) jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish muhim bosqich bo‘lib, u tizimning ishlash samaradorligini bevosita belgilaydi. Tadqiqotlarda ma’lumotlarni yig‘ishning bir nechta usullari qo‘llanilgan, jumladan: **qo‘lda annotatsiya qilish**, **crowdsourcing**, hamda **yarim avtomatik texnikalar** (masalan, bootstrapping va active learning). Tanlangan yondashuvlar mavjud resurslar va tadqiqot maqsadlariga bog‘liq.

Jahon miqyosida ABSA uchun bir qator benchmark datasetlar yaratilgan. Masalan, Pontiki va boshq. (2014) “SemEval-2014 Task 4” tadqiqotida ingliz tilidagi restoran va noutbuk sharhlari asosida dastlabki benchmark dataset ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar POS-tag va qo‘lda annotatsiya yordamida aspektlarni va ularning polaritetini belgilashgan. Shu asosda, keyinchalik, SemEval-2015/2016 datasetlari yaratilgan va ularning yordamida feature-engineering**,** pipeline yondashuvlari, hamda bir qator klassik mashinaviy o‘rganish metodlari (SVM, CRF) sinovdan o‘tkazilgan [5, 6].

Bundan tashqari, global tadqiqotlarda turli tizimlar uchun to‘liq ABSA zanjiri (end-to-end) baholangan. Masalan, C. Brun va V. Nikoulina Foursquare sharhlari asosida yangi ABSA datasetini yaratishgan va tizimlarning samaradorligini tahlil qilishgan [7]. Sun va boshqalar esa ABSA vazifasini savol-javob (QA) va tabiiy til asosidagi xulosalash (NLI) muammolariga o‘xshatib, BERT modelini fine-tuning yordamida SentiHood va SemEval-2014 Task 4 datasetlarida ilg‘or natijalarga erishganlar [8]. Sampathirao va boshqalar ABSAning ahamiyati, muammolari va turli sohalardagi qo‘llanilish imkoniyatlarini keng qamrovli ravishda o‘rgangan. Shuningdek, ABSAni

ISSN 3030-3907

bosqichma-bosqich amalga oshirish tartibini hamda so‘nggi modellar va ma’lumotlar to‘plamlarini (datasets) tahlil qilib, ularning afzalliklari, cheklovlari va kelajakdagi yo‘nalishlarini yoritishgan [9].

Turkiy va o‘zbek tillarida ABSA uchun ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Bayraktar va boshq. turk tilidagi restoran sharhlari asosida rule-based va statistik yondashuvlar yordamida ABSA datasetini yaratgan va lingvistik metodlarni qo‘llashgan. Shu tadqiqot turk tilidagi dastlabki ABSA ishlaridan biri hisoblanadi [10]. Shuningdek, Bilgin va Turan ham turk tilida ABSA vazifasini token va gap darajasida klassifikatsiya yondashuvi bilan bajarishgan. Bu yondashuv turk tilida aspektlarni aniqlash va ularning sentimentini belgilash bo‘yicha muhim tajriba sifatida xizmat qiladi [11].

O‘zbek tilida esa, Matlatipov va boshq. (UzABSA) restoran sharhlari asosida dastlabki ABSA datasetini ishlab chiqqanlar. Ushbu ish qo‘lda annotatsiya va domen-spetsifik aspektlarni belgilash orqali ABSA jarayonini o‘zbek tiliga moslashtirish imkonini beradi [12].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar 2-jadvalda jamlanib, ularning ma’lumot manbalari, asosiy yondashuvlari va natijalari ko‘rsatilgan. Bu jadval ABSA uchun ma’lumot yig‘ish bosqichidagi turli tillar va domenlardagi yondashuvlarni solishtirishga yordam beradi.

2-jadval

ABSA uchun ma’lumot yig‘ish va annotatsiya yondashuvlari bo‘yicha tadqiqotlar

Muallif(lar)	Yil	Asar nomi	Ma’lumot manbasi	Asosiy yondashuv	Natija
Pontiki et al.	2014	SemEval-2014 Task 4: Aspect Based Sentiment Analysis	Restoran, Laptop	Rule-based, SVM, CRF	ABSA uchun benchmark yaratilgan
Brun & Nikoulina	2018	Aspect based sentiment analysis into the wild.	Foursquare sharhlari	End-to-end ABSA	Yangi real-domenli dataset
Sun et al.	2019	Utilizing BERT for aspect-based sentiment analysis via constructing	SentiHood, SemEval-2014	QA & NLI asosida fine-tuning	State-of-the-art natijalar


ISSN 3030-3907

		auxiliary sentence			
Sampathirao et al.	2022	Aspect-based sentiment analysis: A comprehensive survey of techniques and applications	Ko‘p domenli	Review (Survey)	Yondashuvlar va kelajak yo‘nalishlari
Metin Bilgin & Melek Turan	2021	Aspect-Based Sentiment Analysis for Turkish Reviews Using Token and Sequential Classification Methods	Turk tilidagi restoran sharhlari	Token-level (aspect term extraction) va sequence-level (sentiment classification) klassifikatsiya; transformer modellar (BERT, ConvBERT, ELECTRA, DistilBERT)	Aspect term va kategoriyalarni aniqlashda BERT eng yuqori aniqlik (92,20%); sentiment tahlilida ConvBERT eng yaxshi aniqlik (86,91%). Turk tilida nozik-granulyar ABSA uchun benchmark yaratildi.
Matlatipov S. va boshq. (UzABSA)	2024	Aspect-Based Sentiment Analysis for the Uzbek Language	O‘zbek tili restoran sharhlari	Qo‘lda annotatsiya, domen-spetsifik aspektlarni belgilash	O‘zbek tilida dastlabki ABSA datasetini yaratgan; ABSA jarayonini o‘zbek tiliga moslashtirgan

Aspektga asoslangan sentiment tahlilni amalga oshirish bosqichlari

ISSN 3030-3907

Ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar avval yig‘iladi va tozalanadi, qayta ishlangan matndagi aspektlar aniqlanadi va har bir aspekt uchun berilgan hissiy baho aniqlanadi, oxirida natijalar umumlashtirilib chiqariladi:



1-rasm. Aspektga asoslangan sentiment tahlili modellarining sxemasi

Ma’lumotlarni yig‘ish va tozalash

ABSA jarayonining eng muhim qismlaridan biri – ma’lumotlarni yig‘ishdir. Turli ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, sharhlar to‘planadi va API yoki Web scraping orqali yig‘iladi. Yig‘ilgan matnlar tozalash bosqichiga o‘tadi. Tozalash bosqichida:

– Emoji va maxsus belgilarni olib tashlash – faqat lingvistik ma’lumot qoldiriladi;

– URL, @username va hashtaglarni tozalash;

– Tokenizatsiya – matnni so‘z yoki ibora bo‘laklariga ajratish;

– Stop-word removal – “va”, “ham”, “bu” kabi hissiy qiymati yo‘q so‘zlarni olib tashlash;

– Lemmatizatsiya yoki stemming – so‘zlarni asl (bazaviy) shaklga keltirish;

– Til aniqlash va aralash tillarni filtrlash – o‘zbek tiliga tegishli bo‘lmagan so‘zlarni chiqarib tashlash;

– Emojilarni semantik qiymat bilan almashtirish (masalan, 😊 → “ijobiy”).

Ma’lumotlar tozalanib vektorlashtirilgach Naive Bayes, Support Vector Machine (SVM), Conditional Random Fields (CRF), Long Short-Term Memory (LSTM), BERT va RoBERTa kabi modellar yordamida sentiment tahlil qilinadi.

Naive Bayes modeli – bu Bayes teoremasiga asoslangan matnni avtomatik tarzda ma’lum sinflarga ajratuvchi ehtimollik klassifikatoridir. Bunda matn tozalanib Bag-of-Words (BoW) yoki TF-IDF (Term Frequency-Inverse Document Frequency) yondashuvlaridan foydalanib raqamli shaklga o‘tkaziladi. Ushbu bosqichda har bir so‘zning chastotasi yoki muhimligi hisoblanib, matn vektor ko‘rinishida ifodalanadi. Masalan, *“Bu film ajoyib edi”* jumlasi uchun model so‘zlarning chastotasini aniqlaydi: *film=1, ajoyib=1, yomon=0* va hokazo.

ISSN 3030-3907

Modelning aniqligini baholash uchun turli metrikalar – **accuracy**, **precision**, **recall** va **F1-score** hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar modelning real ma’lumotlar ustida qanchalik samarali ishlashini tahlil qilishga yordam beradi. Baholash jarayonida kross-valikatsiya usuli qo‘llanilib, modelning umumlashma qobiliyati tekshiriladi. Naive Bayesning asosiy afzalliklari – kichik hajmdagi ma’lumotlar bilan ham yuqori aniqlikka erishish, tez o‘qitilish va matn tahlilida boshlang‘ich klassifikator sifatida qulaylik yaratishdir.

SVM – bu chiziqli va no-chiziqli ajratish gipertekisliklari orqali sinflar o‘rtasidagi maksimal chegarani topishga asoslangan nazoratli o‘rganish (supervised learning) algoritmidir. Modelning asosiy g‘oyasi – ma’lumotlarni vektor fazosida har bir sinf uchun chegaraviy nuqtalar (support vectors) orasidagi masofa maksimal bo‘ladi. ABSA kontekstida SVM aspekt polaritetini aniqlash uchun keng qo‘llaniladi. Masalan, foydalanuvchi fikrida *“xizmat sifati”* va *“narx”* aspektlariga oid so‘zlar vektorlarga aylantirilib, TF-IDF yoki Word2Vec yordamida xususiyat sifatida kiritiladi. Model bu vektorlarni chiziqli kernel (Linear), radial asosli kernel (RBF) yoki polinomial kernel yordamida sinflarga ajratadi. Afzalligi shundaki, yuqori aniqlikka ega, katta o‘lchamli vektor fazolarida samarali ishlaydi, overfittingga nisbatan chidamli. Kamchiligi esa parametrlarni moslashtirish murakkab va ma’lumotlar katta bo‘lganda hisoblash xarajati yuqori bo‘ladi.

CRF – berilgan ketma-ketlikdagi belgilarni birgalikda tahlil qilib, ularning bir-biriga bog‘liqligini hisobga olgan holda eng mos belgilar ketma-ketligini tanlashdir. Masalan, *“Telefonning kamerasi ajoyib”* degan fikrda CRF *“kamerasi”* so‘zini **aspekt termini** sifatida aniqlay oladi, chunki u “Telefon” so‘zi bilan sintaktik jihatdan bog‘langan va kontekstual ma’noda ijobiy baholangan. Afzalligi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga oladi, ketma-ketlikdagi kontekstual ma’noni to‘liq tahlil qiladi, Aspekt ajratish bosqichida yuqori aniqlik beradi. Kamchiligi esa qo‘lda belgilanadigan xususiyatlar ko‘p mehmat qiladi va o‘qitish jarayoni sekin.

LSTM – bu recurrent neural network (RNN) ning takomillashtirilgan turi bo‘lib, u vaqt ketma-ketliklaridagi uzoq muddatli bog‘lanishlarni (long-term dependencies) saqlab qolishga qodir. LSTM tarmog‘i “input gate”, “forget gate” va “output gate” mexanizmlari orqali har bir so‘zning kontekstini dinamik ravishda yangilab boradi. Bu model, ayniqsa, matndagi murakkab sintaktik va semantik bog‘liqliklarni o‘rganishda samarali natija beradi. Masalan, *“Oshxonaning taomi yaxshi, lekin xizmat sekin”* jumlasida LSTM *“taom”* uchun **ijobiy**, *“xizmat”* uchun **salbiy** baho berishni o‘rganadi. Afzalligi uzoq kontekstni hisobga oladi, annotatsiyasiz katta matnlarda ham o‘rganishga mos, semantik tahlilda yuqori

ISSN 3030-3907

samaradorlikka ega. Kamchiligi esa hisoblash murakkabligi yuqori va o‘qitish uchun katta hajmdagi ma’lumot talab etiladi.

BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) – transformer arxitekturasiga asoslangan chuqur o‘rganish modeli bo‘lib, u matnni ikki yo‘nalishda (chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga) o‘qib, kontekstual ma’noni chuqur tushunishga imkon beradi.

RoBERTa (Robustly Optimized BERT Approach) esa BERTning optimallashtirilgan versiyasi bo‘lib, ko‘proq ma’lumot bilan, dinamik masklash va o‘zgartirilgan o‘qitish strategiyasi yordamida yuqori natijalarga erishadi. ABSA sohasida BERT va RoBERTa modellari aspekt aniqlash, sentiment klassifikatsiyasi va aspekt-segment kontekst bog‘lanishini tahlil qilish bosqichlarida eng samarali yondashuvlar sifatida tan olingan. Masalan, “Narx yaxshi, lekin xizmat yomon” gapida model “narx” va “xizmat” aspektlarini ajratib, ularning har biriga nisbatan sentimentni kontekst asosida to‘g‘ri aniqlaydi. Afzalliklari kontekstni ikki yo‘nalishda chuqur o‘rganadi, aspekt va sentiment o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni tushunadi, oldindan o‘qitilgan (pre-trained) modellar asosida tez moslashadi. Kamchiligi esa juda katta hisoblash resurslari talab qiladi va o‘qitish vaqti uzun.

Aspektlarni aniqlash

Aspekt tahlili – matnda fikr bildirilayotgan obyekt yoki mavzuni aniqlash jarayonidir. Ushbu bosqichda quyidagi yondashuvlar qo‘llanadi:

- Rule-based usullar: lug‘at va qoidalar asosida aspektlarni aniqlash;
- Statistik usullar: TF-IDF, PMI yoki frequency-based tahlil orqali asosiy aspektlarni topish;
- Mashinalar orqali o‘rganish: CRF, LSTM va transformer modellar (masalan, BERT) yordamida avtomatik aspekt ajratish;

Masalan, *“Telefonning ishlash tezligi zo‘r, lekin kamerasi tiniq emas”* gapida *tezligi* va *kamera* so‘zlari **aspekt** sifatida aniqlanadi, bu esa keyingi sentiment bahosini aniqlashda ishlatiladi.

Sentimentni aniqlash

Aniqlangan har bir aspekt uchun hissiy bahoni belgilash – ijobiy, salbiy yoki neytral – ushbu bosqichning asosiy maqsadidir. Bu yerda quyidagi yondashuvlar qo‘llanadi:

- Klassik mashinaviy o‘rganish usullari: SVM, Naive Bayes, Random Forest.
- Transformer modellar: BERT, RoBERTa, XLM-R va ularning fine-tuning variantlari orqali o‘zbek tiliga moslashtirilgan sentiment aniqlash.
- Polarity triplet yaratish: har bir aspekt uchun (aspect term, category, polarity) formatida natija saqlanadi.

Natijalarni baholash va integratsiya qilish

ISSN 3030-3907

Bu yakuniy bosqich hisoblanib, ABSA tizimi tomonidan olingan chiqish natijalarini tahlil qilish, ularning aniqligini mezonlar orqali baholash hamda turli modellar yoki manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona tizimga birlashtirish jarayonidir. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Baholash mezonlari: Accuracy, Precision, Recall va F1-score kabi standart ko‘rsatkichlar yordamida model natijasi tekshiriladi.
- Vizualizatsiya: Word cloud, heatmap va sentiment trend grafikalari orqali aspekt va sentiment natijalari vizual tarzda taqdim etiladi.
- Integratsiya: Aspektlar va ularning sentimenti yagona tizimda jamlanib, ijtimoiy tarmoqlardagi umumiy kayfiyatni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Tadqiqot o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni ABSA orqali tahlil qilish uchun bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llaydi. Ma’lumotlar Telegram, Twitter, YouTube va Facebook kabi platformalardan turli domenlarga (restoran, elektronika, ta’lim) oid postlar va sharhlardan yig‘iladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar preprocessing jarayonidan o‘tadi: emoji va maxsus belgilarni semantik qiymat bilan almashtirish, URL va hashtaglarni tozalash, tokenizatsiya, stop-word removal, lemmatizatsiya, til aniqlash va vektorlashtirish. Tahlil jarayonida Naive Bayes, SVM, CRF, LSTM, BERT va RoBERTa kabi klassik va chuqur o‘rganish modellari qo‘llaniladi. Modellarning samaradorligi Accuracy, Precision, Recall va F1-score kabi mezonlar orqali baholanadi. Olingan natijalar vizualizatsiya qilinib (Word cloud, heatmap, sentiment trend) umumiy tizimga integratsiya qilinadi, bu orqali ijtimoiy tarmoqlardagi jamiyat kayfiyati va soha-spetsifik fikrlar aniqlanadi. Tadqiqot davomida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari himoyalanadi va annotatsiya jarayonida validatsiya bosqichlari qo‘llanadi. Taklif qilingan yondashuvlar o‘zbek tilidagi sentiment tahlilini rivojlantirish va turli sohalarda foydalanuvchi fikrlarini samarali tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sentiment tahlil borasida o‘zbek tilishunosligida katta tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, B.Elov va A. Abdullayev sentiment tahlil uchun katta hajmdagi datasetni yaratish jarayonini uch bosqichli tizim asosida tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqot sentiment tahlil uchun katta hajmdagi datasetni yaratishning ilmiy asoslangan bosqichlarini taqdim etib, sohada innovatsion yechimlarni ilgari surgan[13].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Apidianaki, M., Tannier, X., & Richart, C. (2016, January). Datasets for aspect-based sentiment analysis in French. In International Conference on Language Resources and Evaluation.

2. Regatte, Y. R., Gangula, R. R. R., & Mamidi, R. (2020, May). Dataset creation and evaluation of aspect based sentiment analysis in Telugu, a low resource

ISSN 3030-3907

language. In Proceedings of the Twelfth Language Resources and Evaluation Conference (pp. 5017-5024).

3. Chebolu, S. U. S., Dernoncourt, F., Lipka, N., & Solorio, T. (2023, November). A review of datasets for aspect-based sentiment analysis. In Proceedings of the 13th International Joint Conference on Natural Language Processing and the 3rd Conference of the Asia-Pacific Chapter of the Association for Computational Linguistics (Volume 1: Long Papers) (pp. 611-628).

4. Wu, C., Ma, B., Liu, Y., Zhang, Z., Deng, N., Li, Y., ... & Plank, B. (2025). M-ABSA: A Multilingual Dataset for Aspect-Based Sentiment Analysis. arXiv preprint arXiv:2502.11824.

5. Maria Pontiki, Dimitris Galanis, John Pavlopoulos, Harris Papageorgiou, Ion Androutsopoulos, and Suresh Manandhar. 2014. SemEval-2014 Task 4: Aspect Based Sentiment Analysis. In Proceedings of the 8th International Workshop on Semantic Evaluation (SemEval 2014), pages 27–35, Dublin, Ireland. Association for Computational Linguistics.

6. Maria Pontiki, Dimitrios Galanis, Haris Papageorgiou, Ion Androutsopoulos, Suresh Manandhar, et al.. SemEval-2016 Task 5: Aspect Based Sentiment Analysis. 10th International Workshop on Semantic Evaluation (SemEval 2016), Jun 2016, San Diego, United States. pp.19 - 30, ⟨10.18653/v1/S16-1002⟩. ⟨hal-02407165⟩

7. Brun, C., & Nikoulina, V. (2018, October). Aspect based sentiment analysis into the wild. In Proceedings of the 9th workshop on computational approaches to subjectivity, sentiment and social media analysis (pp. 116-122).

8. Sun, C., Huang, L., & Qiu, X. (2019). Utilizing BERT for aspect-based sentiment analysis via constructing auxiliary sentence. arXiv preprint arXiv:1903.09588.

9. Sampathirao Suneetha, S., & Row, V. (2023). Aspect-based sentiment analysis: A comprehensive survey of techniques and applications. J Data Acquis Process, 38(3), 177-203.10. Bayraktar, K., Yavanoglu, U., & Ozbilen, A. (2019, December). A rule-based holistic approach for Turkish aspect-based sentiment analysis. In 2019 IEEE International Conference on Big Data (Big Data) (pp. 2154-2158). IEEE.

10. Metin Bilgin, Melek Turan. (2025). Aspect-Based Sentiment Analysis for Turkish Reviews Using Token and Sequential Classification Methods. (2025). International Journal of Computer and Information Technology(2279-0764), 14(3). https://doi.org/10.24203/2drscx54

11. Matlatipov, S. G., Rajabov, J., Kuriyozov, E., & Aripov, M. (2024, May). UzABSA: Aspect-Based Sentiment Analysis for the Uzbek Language.

ISSN 3030-3907

In Proceedings of the 3rd Annual Meeting of the Special Interest Group on Under-resourced Languages@ LREC-COLING 2024 (pp. 394-403).
12. Elov, B., & Abdullayev, A. (2025). SENTIMENT TAHLIL UCHUN KATTA HAJMDAGI DATASETNI YARATISH BOSQICHLARI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).

ISSN 3030-3907

UO‘T 631.361.022, 631.362.3

NO‘XAT URUG‘INI DUKKAKLARIDAN AJRATIB FRAKSIYALASH QURILMASINING TAJRIBA NUSXASINI ISHLAB CHIQISH NATIJASI

Pardayev Obid Raximboboevich
Jizzax politexnika instituti texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: pardayevobid143@gmail.com,
Tel: +998881276886
Islomov Muxammad Husniddin o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti assistent,
E-mail: muxammadjon040497@gmail.com,
Tel.: +998940758004

Annatatsiya. Maqolada no‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratib fraksiyalash qurilmasining tajriba nusxasi ishlab chiqildi. Qurilma no‘xat dukkaklarini mexanik tarzda ochish, urug‘larni ajratish hamda ularni o‘lchamiga qarab fraksiyalash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan tajriba nusxasi konstruktiv jihatdan soddaligi, energiya tejamkorligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Tajribalar natijasida qurilmaning unumdorligi, ajratish aniqligi va urug‘larning shikastlanish darajasi baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yangi qurilma urug‘larni yuqori aniqlik bilan fraksiyalash va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradi hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida no‘xatni qayta ishlash jarayonini mexanizatsiyalashda samarali yechim bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: no‘xat urug‘i, fraksiyalash, dukkak ajratish, tajriba nusxasi, mexanizatsiya, samaradorlik.

Annotatsiya В статье разработан опытный образец устройства для выделения и фракционирования семян нута из стручков. Устройство обеспечивает механическое раскрытие стручков, отделение семян и их автоматизированное фракционирование по размеру. Созданный опытный образец отличается конструктивной простотой, энергоэффективностью и высокой производительностью. В ходе экспериментов были оценены производительность устройства, точность разделения и степень повреждения семян. Результаты показали, что новое устройство обеспечивает высокоточность фракционирования, улучшает качественные показатели семян и может служить эффективным решением для механизации процессов переработки нута в сельскохозяйственном производстве.

Ключевые слова: семена нута, фракционирование, выделение из стручков, опытный образец, механизация, эффективность.

Annotation. The article presents the development of a prototype device for separating and fractionating chickpea seeds from their pods. The device automates the mechanical opening of pods, separation of seeds, and their size-based

fractionation. The developed prototype is characterized by structural simplicity, energy efficiency, and high operational effectiveness. Experimental tests evaluated the device's productivity, separation accuracy, and seed damage rate. The findings indicate that the new device ensures high-precision fractionation, improves seed quality indicators, and offers an efficient solution for mechanizing chickpea processing in agricultural production.

Keywords: chickpea seeds, fractionation, pod separation, prototype, mechanization, efficiency.

Kirish

Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan dukkakli ekinlar, jumladan no‘xat, oziq-ovqat va yem-xashak sifatida muhim ahamiyatga ega. No‘xat urug‘ini qayta ishlash jarayonida eng muhim bosqichlardan biri — dukkaklardan urug‘larni ajratish va ularni o‘lcham hamda sifatiga qarab fraksiyalashdir. An’anaviy qo‘lda bajariladigan usullar mehnat talabchan, vaqtni ko‘p oluvchi hamda urug‘larning sifati va tozaligini to‘liq ta’minlay olmaydi. Shu sababli, ushbu jarayonni mexanizatsiyalash va samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu ishda no‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratish va fraksiyalash jarayonini avtomatlashtiruvchi qurilmaning tajriba nusxasi ishlab chiqildi. Qurilma konstruksiyasi urug‘larning shikastlanishini kamaytirish, ajratish aniqligini oshirish hamda ishlab chiqarish unumdorligini yaxshilashga yo‘naltirilgan. Tajriba natijalari qurilmaning amaliyotda qo‘llashga yaroqliligini va qishloq xo‘jaligi texnikalarini takomillashtirishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari asosida, ishlab chiqilgan “Dastlabki talablar” va “Texnik torshiriqlar” bo‘yicha qurilmaning tajriba nusxasini loyihaviy-konstruktorlik hujjatlari ishlab chiqildi (6-va 7-ilovalarga qarang).

Qurilmaning tajriba nusxasining loyihaviy-konstruktorlik xujjatlarini ishlab chiqishda quyidagi ishlab chiqarish va sifatlilik shartlariga amal qilindi:

- qurilmadagi uzel va detallarning resrublikada mavjud bo‘lgan xomashyolardan foydalanib tayyorlanishi;
- montaj va demontaj ishlari oson hamda tez amalga oshirilishi;
- uzel va detallarni bir-biriga mahkamlash ishlari qulay bajarilishi;
- olinadigan uzel va detallar mamlakatimizda ishlab chiqarilishi lozim.


Shu bilan birga; qurilmaning ish sifati yuqori, iqtisodiy jihatdan samarali, ishonchliligi mustahkam, metall va yenergiya sarfi kam, tuzilishi va ishlash rrinsiri sodda hamda boshqarish oson bo‘lishi kerak.

Tadqiqotda Quyosh energiyasidan foydalanish orqali issiqxona ichidagi muhit haroratini barqarorlashtirish va issiqlik rejimini optimallashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Bu jarayonda konduktsiya, konveksiya va radiatsiya kabi issiqlik uzatish mexanizmlari, shuningdek, matematik modellar va ekcperimental usullar qo‘llanildi. Natijada, Quyosh issiqxonalarida issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha issiqlik jamlagichlardan foydalanishning samarali ekanligi isbotlandi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston sharoitida, xususan Sirdaryo viloyatida, issiqxona xo‘jaliklarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Quyosh issiqxonalarini joriy etish nafaqat energiya xarajatlarini kamaytirish, balki qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Kelajakda quyosh energiyasi texnologiyalarining yanada rivojlanishi bilan issiqxona xo‘jaliklarining energiya mustaqilligi yanada oshadi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Цатурян А.И., Александрян К.В. Использование солнечной енергии в теплицах // Механизация и електрификация селского хозяйства. 1986. №1. С.7.
2. Исаченко В.П., Осипова В.А., Сукомел А.С. Теплопередача. М.: Энергия. 1975. 488 с.
3. Михеев М.А., Основы теплопередачи. М-Л.: Госэнергоиздат, 1956,392 с.
4. Гребер Г., Эрл С., Григулль У. Основы учения о теплообмене. М.: ИИЛ.1958.560с.
5. Дроздов В.А., Савин В.К., Александров Ю.П. Теплообмен в светопрозрачных ограждающих конструкциях. М.: стройиздат.1979.307 с.
6. Шкловер А.М.Основы строительной теплотехники жилых и ощественных зданий. М.: Госстройиздат. 1956.350 с.
7. Байрамов Р.Б., Рыбаков Л.Е., Мамедов М. Теплоотдача при капельной конденсации // Изв.АНТР. физ.-тех,хим ., геол.наук. 1978. №3. С.22-28.
8. Авезов.Р.Р, Ниёзов.Ш.К, Абдуллаев.А Конично-разносный метод расчета температурного режима воздушной среды теплиц с солничном обогревом и его эксперементального провека // Гелиотехника. 1984 №3 с 78-81.
9. Авезов.Р.Р, Ниёзов.Ш.К, Абдуллаев.А, Жомуродов.К влияние растительного покрова на количество аккумулированный в почве // Гелиотехника. 1985. №5. С. 41-43.

ISSN 3030-3907

10. Авезов.Р.Р, Ниёзов.Ш.К, Абдуллаев.А, Жомуродов.К влияние растительного покрова на количество аккумулированный в почве теплиц солнечной энергии // Гелиотехника. 1986. №1. С. 31-33.

ISSN 3030-3907

AHOLI TARKIBIDAGI STRUKTURAVIY O‘ZGARISHLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRINI BAHOLASH MODELLARI

Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
Qarshi davlat texnika universiteti, Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrasi, kata o‘qituvchi
Email: Nodirnusriddinovich@gmail.com
Tel: +998 90 320 18 33

Annotatsiya. Maqolada aholi tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash modellari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Demografik o‘zgarishlar, aholi tarkibi, strukturaviy transformatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, demografik yuklama, mehnat resurslari, demografik prognoz, ekonometrik modellashtirish, regression tahlil, demografik ko‘rsatkichlar, rivojlanish dinamikasi, aholi salohiyati, statistik baholash, urbanizatsiya jarayonlari, fertillik va mortalitet, xalqaro taqqoslashlar.

Аннотация. В статье рассматриваются модели оценки влияния структурных изменений в структуре населения на социально-экономическое развитие.

Ключевые слова: Демографические изменения, структура населения, структурная трансформация, социально-экономическое развитие, демографическая нагрузка, трудовые ресурсы, демографический прогноз, эконометрическое моделирование, регрессионный анализ, демографические показатели, динамика развития, потенциал населения, статистическая оценка, процессы урбанизации, рождаемость и смертность, международные сопоставления.

Abstract. The article discusses models for assessing the impact of structural changes in the population structure on socio-economic development.

Keywords: Demographic changes, population structure, structural transformation, socio-economic development, demographic burden, labor resources, demographic forecast, econometric modeling, regression analysis, demographic indicators, development dynamics, population potential, statistical assessment, urbanization processes, fertility and mortality, international comparisons.

Kirish.

Hozirgi global miqyosda shakllanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar davlatlarning iqtisodiy va demografik rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sohada chuqur ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni zarur qiladi. Chunki dunyo miqyosida dolzarb bo‘lgan masalalar orasida iqtisodiy-demografik muammolar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o‘zining demografik jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining murakkabligi bilan farqlanadi. Masalan, ona va bolalar o‘limining nisbatan yuqoriligi, aholi umr

ISSN 3030-3907

davomiyligining yetarlicha uzun emasligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi kabi jihatlar shular jumlasidandir.

Ushbu muammolarni bartaraf etish O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mintaqalarning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishni talab etadi. Chunki hududlarni rivojlantirmasdan turib milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash mumkin emas. Mintaqalar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, ular milliy iqtisodiy o‘sish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli aholining demografik holatini, uning tarkibiy dinamikasini ilmiy asosda o‘rganish va baholash mamlakat istiqboli uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Demografik holatni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni tizimli o‘rganish va tahlil qilish demografik statistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish, avvalo, aholi soni va uning tarkibiy tuzilmasi, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, nikoh va ajralishlar soni, immigratsiya va emigratsiya hajmi, shuningdek aholining mamlakat ichidagi hududlar bo‘yicha ko‘chib yurishi kabi asosiy demografik jarayonlarni qamrab oladi. Har qanday mintaqadagi aholi sonining shakllanishi tug‘ilish, o‘lim, tashqi va ichki migratsiya oqimlarining o‘zaro ta’siri natijasida uzluksiz ravishda o‘zgarib boradi. Ushbu tarkibiy jarayonlarning har biri bo‘yicha qonuniyatlarni aniqlash demograflar oldidagi eng muhim vazifalardan bo‘lib, ular orqali demografik dinamikadagi tendensiyalarni tushuntirish va kelgusidagi demografik o‘sish yoki kamayishni prognozlash imkoniyati yaratiladi.

Demografik tahlilning boshlang‘ich nuqtasi sifatida aholining mutlaq soni olinadi. Mazkur ko‘rsatkich ma’lum bir hududda ma’lum bir vaqt kesimida yashayotgan aholining umumiy miqdorini ifodalaydi[2]. Mutlaq aholi soni statik xarakterga ega bo‘lib, u odatda aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari, tabiiy harakat – tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari hamda migratsiya balansiga asoslangan hisob-kitoblar orqali aniqlanadi. Demografik amaliyotda hozirgi (de-fakto) va doimiy (de-yure) aholi tushunchalarini farqlash an’anaga aylangan. Ushbu ikki toifa ba’zan bir-biridan keskin farq qilishi mumkin, chunki ular aholining turar joy bo‘yicha doimiy yoki vaqtinchalik yashash holatini aks ettiradi.

Aholini ro‘yxatga olish demografik jarayonlarni o‘rganishning eng ishonchli manbalaridan biridir. U muayyan vaqt nuqtasida mamlakat yoki hudud aholisining soni, tarkibi, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi yirik statistik tadbir sanaladi. Ro‘yxatga olish jarayonida aholi faqat o‘sha vaqtda yashayotganlar sifatida qayd etiladi; ya’ni undan avval vafot etgan shaxslar yoki ro‘yxatga olishdan so‘ng tug‘ilganlar hisobga olinmaydi. Shu bois, aholini ro‘yxatga olish “aholining aniq suratini” beruvchi usul sifatida baholanadi.

ISSN 3030-3907

Ro‘yxatga olish dasturi odatda har bir shaxs haqida juda keng ko‘lamli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Demografik (jinsi, yoshi, tug‘ilgan joyi, nikoh holati), iqtisodiy (kasbi, bandlik holati, iqtisodiy faoliyat turi, daromad manbai), ta’lim darajasi va o‘qish yillari, shuningdek etnik-til jihatlari (millati, ona tili, kundalik so‘zlashuv tili) kabi ma’lumotlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ro‘yxatga olishda uy xo‘jaliklari tarkibi, oilaviy aloqalar va uy-joy sharoitlari haqida ham to‘liq ma’lumotlar yig‘iladi.

Muhokama. Aholini ro‘yxatga olish jarayoni o‘z mohiyatiga ko‘ra bevosita respondentlarning shaxsiy ma’lumot berishiga asoslanadi. Ya’ni, ro‘yxatga olishda axborot hujjatlar asosida emas, balki aholining bevosita javoblari orqali shakllantiriladi. Bu esa faqat respondentning o‘zi tasdiqlashi mumkin bo‘lgan, aniq va shaxsga xos demografik ma’lumotlarni yig‘ish imkonini yaratadi. Davlat statistika organlari tomonidan to‘plangan ushbu individual ma’lumotlar keyinchalik maxsus statistik qayta ishlovdan o‘tkazilib, shaxslarga bog‘lanmagan umumlashgan demografik ko‘rsatkichlarga aylantiriladi.

Aholini ro‘yxatga olishning tatbiq etiluvchi metodlari davlatlar kesimida farqlanishi mumkin. Amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri — maxsus o‘qitilgan ro‘yxatga oluvchilar tomonidan uyma-uy yurib ma’lumot yig‘ishdir. Ushbu yondashuv O‘zbekistonda ham asosiy usul sifatida qo‘llanilmoqda. Ayrim davlatlarda esa o‘z-o‘zini hisobga olish modeli joriy etiladi; bunda ro‘yxatga olish varaqalari aholiga tarqatiladi yoki pochta orqali yetkaziladi, shundan so‘ng fuqarolar mustaqil ravishda savollarga javob beradi va to‘ldirilgan shakllar belgilangan tartibda yig‘ib olinadi.

Demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish jarayonida ushbu jarayonlarga tegishli ko‘rsatkichlarni hisoblashning metodik asosini demografik jadvallar tashkil etadi. Demografik jadval — bu avlod yoki populyatsiya doirasida muayyan demografik jarayonlarning (tug‘ilish, o‘lim, omon qolish, yoshga oid tuzilma va h.k.) kechishini aks ettiruvchi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlardan iborat matematik-statistik model hisoblanadi [3]. Demografik jadvallar yordamida tug‘ilish koeffitsientlari, o‘lim koeffitsientlari, o‘rtacha umr davomiyligi kabi ko‘plab muhim indikatorlar aniqlanadi.

Demografik tizimning eng asosiy tarkibiy elementi — aholining mutlaq sonidir. Ma’lum hududda ma’lum bir vaqt momentida yashovchi aholi soni ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida aniqlanadi yoki tug‘ilganlar va vafot etganlar soni, shuningdek, migratsiya oqimlari haqidagi ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi. Tug‘ilishlar va o‘limlar soni o‘rtasidagi farq tabiiy o‘sishni ifodalasa, kelganlar va ketganlar o‘rtasidagi tafovut migratsiya balansini shakllantiradi. Tabiiy o‘sish va migratsiya oqimlari yig‘indisi esa umumiy aholi dinamikasining asosiy drayverlari sifatida qaraladi.

ISSN 3030-3907

Tabiiy o‘sish va migratsiya balansi aholining ma’lum bir davrdagi o‘zgarishining tarkibiy qismlari bo‘lib, quyidagi demografik muvozanat tenglamasini olish imkonini beradi[5]:

$$Pt = P_0 + (B - M) + (M_t - M_0) \quad (1)$$

bu yerda,

P_t - t vaqtidagi aholi soni;

P_0 - vaqtning dastlabki vaziyatdagi aholi soni;

B - davrdagi tug‘ilganlar soni;

M - davr mobaynida vafot etganlar soni;

M_t - davr mobaynida kelganlar soni;

M_0 - davr mobaynida chiqib ketgan kishilar soni.

Shuningdek, demografik tahlilda aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

- aholining tabiiy o‘sishi:

$$EP = V – M \quad (2)$$

- migratsiyaning ko‘payishi:

$$MP = M_i – M_0 \text{ yoki } MP = OP – EP \quad (3)$$

bu yerda,

OP - aholining umumiy o‘sishi.

- tabiiy o‘sish darajasi:

$$C_{ap}=EP/\dot{P}T*1000‰ \quad (4)$$

bu yerda,

KEP - tabiiy o‘sish koeffitsienti;

T - davr uzunligi;

Ṗ - davr uchun o‘rtacha aholi soni.

- migratsiya o‘sish sur’ati:

$$K_{mp}=MP/\dot{P}T*1000‰ \quad (5)$$

bu yerda,

MMC - migratsiya o‘sish sur’ati.

- umumiy o‘sish sur’ati:

$$C_{op}=OP/\dot{P}T*1000‰ \quad (6)$$

bu yerda,

KOP - umumiy o‘sish koeffitsienti.

- davr uchun o‘sish sur’ati:

$$Crosta=P_t/P_0*100\% \quad (7)$$

- o‘rtacha aholi soni:

$$K_{gain}=(P_t-P_0)/P_0*100\% \quad (8)$$

- eng ko‘p qabul qilingan 1 yil uchun t davri sur’ati:

$$\dot{P}=(P_i+P_0)/2 \quad (9)$$

ISSN 3030-3907

Aholi zichligi - hudud birligiga to‘g‘ri keladigan kishilar soni (km^2):

$$PN=P/Q \qquad (10)$$

Shuningdek, demografik jarayonlarni tahlil qilish ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi[4]:

Aholining umumiy soni (*demografik muvozanat tenglamasi)[6]*

$$P= P0+(N-M)+(V+-V-)=P0+E+Vpr$$

bu yerda,

P - aholining umumiy soni

P_0 - davr boshidagi aholi

N - tug‘ilganlarning umumiy soni

M - o‘lganlarning umumiy soni

E - aholining tabiiy o‘sishi

V_+- kelganlar soni

V_-- tashlab ketilganlar soni

V_{pr} - migratsiya balansi

Aholining umumiy o‘sishi

$$P1-P0=Ppr$$

bu yerda,

P_0 - davr boshidagi aholi soni (odatda yil)

P_1 - davr oxiridagi aholi soni

Aholining tabiiy o‘sishi

$$N-M=E$$

bu yerda,

N - tug‘ilganlarning umumiy soni

M - o‘lganlarning umumiy soni

Agar aholining tabiiy kamayishi bo‘lsa, indikatorning qiymati salbiy bo‘lishi mumkin.

Natija. Ko‘pgina mamlakatlarda kelganlar va ketganlar haqida kam ma’lumot mavjud. AQShda muhojirlar hisobga olinmaydi. Keyin, ular 1960-yillarda BMT tomonidan taklif qilingan demografik muvozanat tenglamasidan bilvosita qoldiq izlaydilar.

Reproduktiv yoshdagi ayollarning ulushi

$$F = \frac{Nx}{Wx * T} - Wx$$

Umumiy koeffitsientlar xarakterlidir. Mavjud bo‘lgan demografik hodisalar soni ushbu hodisani keltirib chiqaradigan qismga va butun aholiga tegishli bo‘ladi. Ushbu hodisaning boshlanishi maxrajning qiymatini kamaytirmaydi.

Tug‘ilish va o‘lim darajasi

$$n = \frac{N}{P} * 1000 \text{ (yiliga o}'\text{rtacha ming kishiga tirik tug}'\text{ilganlar soni)}$$

ISSN 3030-3907

$$m = \frac{M}{P} * 100$$

bu yerda,
- ma’lum bir yilda o‘lim soni;
- ma’lum bir yilda tug‘ilganlar soni;
- yiliga o‘rtacha aholi soni.

Maxsus tug‘ilish darajasi

Maxsus tug‘ilish koeffitsienti () - kalendar yilida tirik tug‘ilganlarning reproduktiv yoshdagi ayollarning o‘rtacha yillik soniga nisbati:

$$F15 - 49 = \frac{Nx}{W15 - 49} * 1000$$

bu yerda,
15 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan ayollarning o‘rtacha soni;
N - tug‘ilganlar soni.

Tug‘ilish intensivligi koeffitsienti

$$I = \frac{Nx}{Wx}$$

bu yerda,
– *x* yoshdagi ayollarda tug‘ilish soni;
- o‘rtacha yillik aholi soni.

Chaqaloqlar o‘limi darajasi

$$m0 = \frac{M0}{(2N0/3) - (N(-1)/3)} * 1000 \quad \textit{(Rats formulasi)}$$

$$m0 = \frac{M0}{N0} + \frac{M(-1)}{N(-1)} * 1000$$

bu yerda,
M_0 – 0 yoshdan 1 yoshgacha vafot etganlar soni
M_{-1} - o‘tgan yili tug‘ilganlar sonidan bir yoshgacha vafot etgan bolalar soni
N_0 – hisobot yilida tug‘ilganlar soni;
N_{-1} - o‘tgan yili tug‘ilganlar soni.

Nikoh koeffitsienti

$$b = \frac{B}{P * T} * 1000$$

bu yerda,
- nikohlarning umumiy soni;
- mehnatga layoqatli yoshdagi o‘rtacha aholi;
- bir kalendar yili.

Ajralish darajasi

$$Sr = \frac{R}{P * T} * 1000$$

bu yerda,
- ajralishlarning umumiy soni.

ISSN 3030-3907

Nikoh va ajralish koeffitsientlari aholining 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan demografik hodisalar sonini ko‘rsatadi va ppmda ifodalanadi.

Ajralish indeksi formula bo‘yicha aniqlanadi[8]:

$$I = \frac{R}{B}$$

Yaqinlashib kelayotgan hayotning o‘rtacha davomiyligi ko‘rsatkichi

$$ex = \frac{Tx}{lx}$$

bu yerda,

T_x - aniq yoshga etganidan keyin yashash kerak bo‘lgan kishi soni *x* yil;

l_x - x yoshga qadar yashaydiganlar soni.

Shular bilan bir qatorda, aholining ko‘payish koeffitsientlari quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- yalpi aholining ko‘payish koeffitsienti - har bir ayol o‘zining butun reproduktiv davrida o‘rtacha tug‘adigan qizlar soniga qarab hisoblanadi va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar orasida qizlar ulushiga ko‘paytiriladigan tug‘ilishning umumiy koeffitsientiga teng bo‘ladi.

- aholining sof ko‘payish koeffitsienti - bu tug‘ilish va o‘lim darajasi bo‘yicha ayol sifatida umr bo‘yi tug‘ilgan va reproduktiv davr oxirigacha yashagan qizlarning o‘rtacha soni.

- haqiqiy tabiiy o‘sish koeffitsienti.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, demografik ko‘rsatkichlar koeffitsientlarga asoslangan holda olib borilgan kuzatishlarga asoslanadi. Ushbu tahlilni yo‘nalishi va turi bevosita ko‘ndalang tahlilga asoslanadi.

Umuman olganda, demografik ko‘rsatkichlar aholining holati va sifat tarkibini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tug‘ilish, o‘lim, aholining tabiiy o‘sishi, aholining mexanik o‘sishi, yosh-jins piramidasi kabilarni tahlil qilinishini taqozo qiladi. Aholi o‘sish dinamikasini o‘rganish uchun esa aholining o‘sish sur’ati, aholining o‘sish sur’ati va aholining o‘sish sur’ati kabilarni o‘rganish zarurdir. Bundan tashqari, ushbu demografik tahlilda aholining ko‘payishning maxsus ko‘rsatkichlaridan samarali foydalaniladi. Natijada, demografik jarayonlarni tahlil qilish ko‘rsatkichlaridan foylalanish asosida ularni samarali baholashga erishiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Novoselova S.V., Denisenko M.B. Osnovi demografii. Posobiye. – Minsk: «ALTIORA - JIVIYE KRASKI», 2012. - s. 22.

2. Medkov V.M. Demografiya: Uchebnoye posobiye. Seriya «Uchebniki i uchebniye posobiya».- Rostov-na-Donu: «Feniks», 2002. - s. 39.

3. Kachagina O.V. Osnovi demografii: osnovi teorii i prakticheskiye zadaniya: Uchebnoye posobiye. – Ulyanovsk: UlGU, 2016. - s. 42.

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Демографические_показатели

ISSN 3030-3907

5. Wooldridge, J. M. (2012), Introductory Econometrics: A Modern Approach, Fifth Edition. South-Western 5191 Natorp Boulevard Mason, OH 45040 USA.
6. G.S. Maddala, Kajal Lahiri (2009). Introduction to econometrics /4th ed. Chichester, West Sussex: John Wiley, c 2009, 634 p.
7. G.S. Maddala, Kajal Lahiri (2009). Introduction to econometrics /4th ed. Chichester, West Sussex: John Wiley, c 2009, 634 p.
8. G. S. Maddala, Introduction to Econometrics, 2d ed., Macmillan, New York, 1992,

ISSN 3030-3907

SURTMA DORILARNING ORGANIZMGA TA’SIRI

Eshnazarova Shohsanam Toshmurod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti 1-kurs talabasi
Xasanov Feruz Odilovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti 1-kurs talabasi
E-mail: medik9459@gmail.com
Qodirov Behzod G‘ofurovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrasi assistenti
Samarkand, Uzbekistan
Email: behzodqodirov319@gmail.com ,

Annotatsiya: Mazkur maqolada surtma dorilarning farmatsevtik shakl sifatidagi ahamiyati, ularning teri orqali so‘rilish mexanizmi, farmakologik ta’siri hamda organizm tizimlariga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, surtmalarning kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari va ularning fiziologik tizimlarga ta’siri ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Maqola tibbiyot va farmatsevtika amaliyotida surtmalarning o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: surtma, perkuton-so‘rilish, farmakokinetika, yallig‘lanishga qarshi, regeneratsiya, teri.

Аннотация: В данной статье анализируется значение мазевых лекарственных форм, механизмы их абсорбции через кожу, фармакологические свойства и особенности воздействия на функциональные системы организма. Также рассматриваются химический состав мазей, биологически активные вещества и их влияние на физиологические процессы. Статья раскрывает роль и практическое значение мазевых препаратов в медицине и фармацевтике.

Ключевые слова: мазь, перкутанное всасывание, фармакокинетика, противовоспалительное действие, регенерация, кожа.

Annotation: This article analyzes the importance of ointment dosage forms, the mechanisms of their absorption through the skin, their pharmacological properties, and their effects on the functional systems of the body. It also examines the chemical composition of ointments, biologically active components, and their influence on physiological processes. The article highlights the role and practical significance of ointment-based preparations in medicine and pharmacy.

Keywords: ointment, percutaneous absorption, pharmacokinetics, anti-inflammatory effect, regeneration, skin.

Kirish

Surtmalar, malhamlar, sham dorilar, hab dorilar, tibbiyot qalamchalari yumshoq dorilar sirasiga kiradi.

ISSN 3030-3907

Surtma dorilar (lot. *unguentum*) - bu tashqi qo‘llaniladigan yarim qattiq konsistensiyadagi farmatsevtik shakl bo‘lib, ular asosan teri, shilliq qavat yoki shikastlangan yuzaga surtiladi. Farmatsevtika sanoatida surtmalar dorivor moddalarning mahalliy yoki tizimli ta’sirini ta’minlovchi qulay shakl sifatida keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy afzalligi - dorivor moddaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararlangan soha bilan bevosita aloqada bo‘lishi va shu orqali tez ta’sir ko‘rsatishidir.

Surtma dorilar tarkibida uchta asosiy komponent mavjud: faol modda (biologik faol kimyoviy birikma), asos (yog‘li, suvli yoki emulsion muhit) va yordamchi moddalardir. Bu komponentlarning o‘zaro nisbatlari dori vositasining fizik-kimyoviy barqarorligi, so‘rilish tezligi va biologik faolligini belgilaydi.

Asosiy qism

1. Surtma dorilarning farmatsevtik xususiyatlari

Surtmalar dori shakllari orasida o‘zining farmatsevtik va texnologik qulayligi bilan ajralib turadi. Dorixona resepturasining 10% ini tashkil qiladi. Ularning konsistensiyasi tashqi qo‘llanish uchun mos, teriga oson singuvchi va uzoq muddat ta’sir ko‘rsatuvchi bo‘lishi kerak. Ko‘pincha teri kasalliklari, ko‘z va jarrohlik amaliyotida keng qo‘llaniladi. Surtmalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Yog‘ asosli surtmalar (vazelin, lanolin asosida) – suvda erimaydigan, ammo himoya qatlami hosil qiluvchi preparatlar.


Suv asosli surtmalar - tez so‘riladigan, sovituvchi yoki yallig‘lanishni kamaytiruvchi maqsadlarda ishlatiladi.

Emulsion surtmalar (suv-yog‘ va yog‘-suv tizimlari) - har ikkala xususiyatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Surtmalarning tayyorlanishida texnologik jarayonlar (eritish, aralashtirish, gomogenizatsiya) moddaning so‘rilish darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir dori turi uchun optimal asos tanlash - terapevtik samarani ta’minlovchi eng muhim bosqichlardan biridir.

Dorilar kimyo - farmatsevtika zavodlarida sintetik moddalardan, o‘simlik, hayvon yoki mikrobiologik mahsulotlardan, tez buziladigan ayrim Dorilar esa dorixonalarda tayyorlanadi.

ISSN 3030-3907



2. Teri orqali so‘rilish mexanizmi

Surtma qo‘llanilganda faol modda terining yuqori qavati - **stratum corneum** orqali o‘tadi. Bu jarayon **diffuziya** mexanizmi orqali sodir bo‘ladi. Teri strukturasi ko‘p qatlamli bo‘lib, u dori moddalarning o‘tishiga tabiiy to‘siq vazifasini bajaradi. Shunga qaramay, ayrim moddalarning molekulyar massasi kichik, lipofil xususiyati kuchli bo‘lgani sababli ular epidermis orqali so‘riladi va qon oqimiga tushadi.

So‘rilish tezligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- faol moddaning fizik-kimyoviy xususiyatlari (molekula massasi, eruvchanligi, qutbliligi);
- surtmaning asosi (yog‘li, suvli yoki aralash muhit);

ISSN 3030-3907

- teri yuzasining harorati va namligi;
- surtma surtilgan joydagi qon aylanish intensivligi.

Shu bois, surtmalarning samaradorligi nafaqat ularning tarkibiga, balki qo‘llanish joyi va usuliga ham bog‘liqdir. Masalan, ingichka terili sohalarda (yuz, bo‘yin) so‘rilish tezroq, qalin epidermisli joylarda (tovon, tirsak) esa sekinroq kechadi.

3. Biologik ta’sir mexanizmlari

Har qanday Dorini odamlarga qo‘llashdan oldin hayvonlarda sinab ko‘riladi va klinikalarda kuzatiladi.

Surtma tarkibidagi faol moddalarning farmakologik ta’siri ularning sinfiga bog‘liq. Masalan: **Antibakterial surtmalarda** (levomekol, eritromitsin maz’) mikroblarning hujayra devorini buzuvchi yoki oqsil sintezini to‘suvchi mexanizm asosida ta’sir ko‘rsatadi.

Yallig‘lanishga qarshi surtmalarda (ibuprofen, diklofenak asosida) prostaglandinlar sintezini inhibe qiladi.

Yarani bitiruvchi va regeneratsiya qiluvchi surtmalarda (metiluratsil, panthenol) to‘qimalarda hujayra bo‘linishini faollashtiradi, granulyatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Gormonal surtmalar (prednizolon, betametazon) esa yallig‘lanish mediatorlarini bostirish orqali kuchli antiallergik va immunosupressiv ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir guruhdagi surtma dorilar o‘ziga xos farmakodinamik mexanizm asosida ishlaydi, ammo ularning umumiy maqsadi - mahalliy terapevtik natijani ta’minlashdir.

4. Organizm tizimlariga umumiy ta’siri

Ba’zi surtmalar faqat mahalliy ta’sirga ega bo‘lsa-da, ayrimlari teri orqali tizimli qon oqimiga o‘tib, butun organizmga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, **nitroglitserin** surtmalar yurak ishemik kasalliklarida qo‘llanilib, u tomirlarni kengaytiradi va yurak yuklamasini kamaytiradi. Shuningdek, **kortikosteroid surtmalarning** uzoq muddat qo‘llanilishi gormonal muvozanatni buzishi, terining yupqalashiga va mahalliy immunitet pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli surtma preparatlarini shifokor ko‘rsatmasisiz uzoq muddat qo‘llash tavsiya etilmaydi.

Surtmalar – qadimiy malhamlardan biri bo‘lib, zamonaviy tibbiyotda ham ularning ahamiyati benihoya kata. Ular qo‘llanishi bo‘yicha:

a) Zararlangan teri va shilliq qavatlarni zaharli gazlar, organic erituvchilar va chang bilan ifloslanishdan saqlash uchun (antiseptik surtmalar);

b) Teri kasalliklarini davolashda;

c) To‘g‘ri ichak kasalliklarida;

ISSN 3030-3907

d) Ko‘z va burun shilliq qavati zararlanganda;
e) Sochni parvarishlashda.

urtmalarning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar

Surtmalarning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud, jumladan:

- **Dori vositasining fizik-kimyoviy xususiyatlari:** Dori vositasining fizik-kimyoviy xususiyatlari, masalan, uning molekulyar og‘irligi, eruvchanligi va erish nuqtasi uning surtmaning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir qiladi.
- **Asosning tarkibi:** Asosning tarkibi, masalan, uning turi va boshqa ingredientlarning mavjudligi surtmaning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir qiladi.
- **Ishlab chiqarish jarayoni:** Ishlab chiqarish jarayoni, masalan, aralashtirish va isitish surtmaning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir qiladi.
- **Saqlash sharoitlari:** Saqlash sharoitlari, masalan, harorat va namlik surtmaning farmatsevtik xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Surtmalarning farmatsevtik xususiyatlarini baholash

Surtmalarning farmatsevtik xususiyatlarini baholash uchun bir qator usullar mavjud, jumladan:

- **Eruvchanlikni tekshirish:** Eruvchanlikni tekshirish dori vositasining asosda erish qobiliyatini aniqlash uchun ishlatiladi.
- **Tarqalishni tekshirish:** Tarqalishni tekshirish dori vositasining asosda tarqalish qobiliyatini aniqlash uchun ishlatiladi.
- **Yopishqoqlikni tekshirish:** Yopishqoqlikni tekshirish surtmaning oqimga qarshilik ko‘rsatishini aniqlash uchun ishlatiladi.
- **Reologik tekshirish:** Reologik tekshirish surtmaning deformatsiya va oqim xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatiladi.
- **Barqarorlikni tekshirish:** Barqarorlikni tekshirish surtmaning vaqt o‘tishi bilan o‘z xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyatini aniqlash uchun ishlatiladi.

XULOSA

Surtmalarning farmatsevtik xususiyatlari ularning samaradorligi, barqarorligi va bemor tomonidan qabul qilinishiga ta'sir qiladi. Ushbu xususiyatlarga dori vositasining eruvchanligi, tarqalishi, asosning turi, yopishqoqligi, reologiyasi va saqlash sharoitlari kiradi. Ushbu xususiyatlarni tushunish samarali va xavfsiz surtmalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Surtma dorilar tibbiyotda muhim o‘rin egallaydi. Ular dorivor moddalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararlangan joyga yetib borishini ta’minlab, mahalliy yallig‘lanish, og‘riq yoki infeksiyani tezda kamaytiradi. Teri orqali so‘rilish mexanizmi tufayli ayrim surtmalar tizimli ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Surtmalarning organizmga ta’sirini to‘liq anglash uchun ularning farmakokinetik xususiyatlari, teri fiziologiyasi va modda almashinuvi jarayonlarini

ISSN 3030-3907

chuqur o‘rganish zarur. Ilmiy asosda tayyorlangan surtma dorilar tibbiyot amaliyotida yuqori terapevtik samaradorlikka ega bo‘lib, zamonaviy farmatsevtika sanoatining ajralmas qismiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X. X. Xolmatov, O. A. Ahmedov. Farmakognoziya va botanika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. M. N. Xabibullayeva, Sh. R. Jo‘raev. Farmatsevtik texnologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
3. Rang, Dale, Ritter. Pharmacology. – Elsevier, 2022.
4. Aulton M. E. Pharmaceutics: The Design and Manufacture of Medicines. – Churchill Livingstone, 2021.
5. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology. – Elsevier, 2021.
6. Sapaev J. et al. Development of automated water detection device //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020018.
7. Suvanova L. S. et al. Studying the technological possibilities of the large sun face in the localization of imported jewelry stones //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020016.
8. Муратов И. М. и др. СУПЕРОКСИДНЫЙ КАТАЛИЗ МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСАМИ ПОРФИРИНОВ И ФТАЛОЦИАНИНОВ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 6-2 (96). – С. 41-44.
9. Мукумов И. У. и др. Распространение рода Шренкия во флоре Узбекистана //Вестник современных исследований. – 2019. – №. 5.2. – С. 25-27.

ISSN 3030-3907

MILLIY G‘OYA RIVOJIDA TARIXIY MEROS VA QADRIYATLAR TIZIMI

Yunusova Nasiba Sharifovna
Toshkent davlat transport universiteti, Ph.D., professor
E-mail:nasiba.yunusova.1968@gmail.com
Rahmonov Bahodir Mirzayevich
Toshkent davlat transport universiteti, Ph.D., professor
E-mail: rahmonovbahodir1971@gmail.com

Annotasiya: Maqolada g‘oyalar tarixi, tarixiy meros va qadriyatlar tizimi tahlil qilingan, xususan, tarixiy meros tushunshasi va uning tuzilmasi, tarix va tarixiy qadriyatlar haqidagi turli konsepsiyalar va yondashuvlar, ijtimoiy taraqqiyot natijasida uning rivojlanishi, tarixiy qadriyatlarning milliy g‘oya tarixini anglashdagi o‘rni, tarixiy ong va milliy ong mushtarakligi va zamonaviy sharoitida uni amalga oshirish omillari haqida keng mushohada qilingan. Shuningdek, maqolada hozirgi kunda tarixiy merosning milliy g‘oya tarixini anglashdagi ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: tarixiy meros, qadriyatlar, g‘oya, milliy g‘oya, milliy ong, milliy mafkura, tarixiy ong va tafakkur, tarixiy xotira, vatanparvarlik.

Аннотация: в статье анализируется история идей, историческое наследие и система ценностей, в частности, понимание исторического наследия и его структуры, различные концепции и подходы к истории и историческим ценностям, ее развитие в результате социального прогресса, роль исторических ценностей в понимании истории того или иного национального идея, общность исторического сознания и национального В статье также размышляется о важности исторического наследия в понимании истории национальной идеи в настоящее время.

Ключевые слова: историческое наследие, ценности, идея, национальная идея, национальное самосознание, национальная идеология, историческое сознание и мышление, историческая память, патриотизм.

Abstract: the article analyzes the history of ideas, historical heritage and value system, in particular, the understanding of historical heritage and its structure, various concepts and approaches to history and historical values, its development as a result of social progress, the role of historical values in understanding the history of a particular national idea, the community of historical consciousness and national In the article He also reflects on the importance of historical heritage in understanding the history of the national idea at the present time.

Keywords: historical heritage, values, idea, national idea, national identity, national ideology, historical consciousness and thinking, historical memory, patriotism.

ISSN 3030-3907

Kirish.

Milliy davlatchilikning qayta tiklanishi boy tarixiy-madaniy va ma’naviy merosni o‘rganish, qadriyatlarni tiklash imkonini berdi. Tarixni, milliy-madaniy merosni o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘ldi. Tarixiy-madaniy merosga munosabat yosh avlodda Vatan tarixi va milliy merosga bo‘lgan hurmat-e’tiborni shakllantirishga, ularda vatanparvarlik, bunyodkorlik tuyg‘ularini kuchaytirishga yo‘naltirilgani, o‘zbek xalqi boy tarixiy merosining umumbashariy ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Sharq va G‘arbda o‘zlikni anglash tuyg‘usi milliy birlashishga, boshqa xalqlar bilan muloqatga kirishishga turtki bo‘lgan. O‘zlikni anglash xalqni harakatga keltiruvchi, uyushtiruvchi kuchdir. “Milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim” [1]. Ilm-fan umuminsoniy qadriyatlar ichida eng asosiysidir.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar va elatlarning maqsadlariga muvofiq keladi. Xalqlarning madaniy-ma’naviy rivojlanishi, tarixi bir-biriga bog‘liq. Umuminsoniy qadriyatlarga insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan bog‘liq umumbashariy muammolar kiradi. Xususan, ilm-fanni rivojlantirish, tinchlikni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish va hakozo.

Ijtimoiy fikr tarixida tarixiy ongning tarbiyaviy ahamiyati har doim yuksak qadrlangan, chunki unda avlodarning ma’naviy aloqasi, vorisiylikni ta’minlash o‘z ifodasini topgan. Ingliz ma’rifatparvari Lord Bolinbrok aytganidek: “Tarix bu misollar oraqali o‘qitiladigan, shaxsiy va ijtimoiy hayotning har qanday holatlarida o‘zini qanday tutishni o‘rgatadigan falsafadir. Shuning uchun ham biz tarixga falsafiy yondashmog‘imiz lozim. Tarix hikoya qilayotgan hodisalarga aqlimizni o‘rgatib, o‘zimizni ijtimoiy hayotga va amaliy faoliyatga tayyorlab borishimiz darkor” [2]. Negaki, axloqiy meyorlarning shakllanishida, insoniy sifatlarning takomillashishida tarixiy ongning roli beqiyosdir.

Tarixiy meros tarixiy ongning shakllanishida muhim rol o‘ynaganligi hamda uning vorisiyligi natijasida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan: a) saxovatpeshalik, b) bag‘rikenglik, v) mehmondo‘stlik, g) andishalilik, d) kechirimlilik, ye) insonparvarlik, yo) iymon-e’tiqodlilik, j) samimiylik kabi ijobiy xususiyatlar tarkib topdi. Bu xususiyatlar nafaqat hozirgi kun yoki yaqin o‘tmishni o‘zida aks ettiradi, balki bu inson hamda uning tarixdagi o‘rni haqidagi tafakkur jarayoni bilan bevosita bog‘liq [3]. Shu nuqtai nazardan mafkura ham ijtimoiy ongning o‘ziga xos

ISSN 3030-3907

shakli, tarixiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, unda tarixiy meros va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati mujassamlashgandir.

Asosiy qism. G‘oya va mafkuralar rivojlanishini jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy jarayonlar belgilaydi. O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyotida milliy yuksalish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Milliy g‘oyani rivojlantirishda, tarixiy ong va tafakkurni yuksaltirishda tarixiy qadriyatlarni tiklash, madaniy merosni o‘rganib, o‘zlashtirish, ularni ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rnini teran anglab yetish muhim o‘rin tutadi.

«Qadimiylikda Misrliklardan qolishmaydi»gan (Pompey Trog) xalqimizning qadriyatlari hamisha jahondagi ko‘pchilik olimlarning diqqatni tortib, o‘tmish merosimizni o‘rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bu jarayon yanada kuchaymoqda. Shu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko‘plab manbalar yuzaga kelgan.

Biroq, bu o‘rinda, ushbu manbalarning aksariyatida xalqimizning o‘tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to‘liq yoritilib, obyektiv baholanmaganligini ta’kidlash joiz. Dunyoning turli joylarida muayyan maqsad-muddaolarni ko‘zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar yoki o‘tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho‘rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma’naviy merosimizni ko‘p hollarda to‘liq va xolis yoritmagan.

Madaniy meros qanday bo‘lsa, davr va avlodlar ham shunday bo‘ladi. Mustaqillik yillarida xalqimiz tarixiy merosini tiklash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Tarixiy merosimizga mustamlakachilik davrlaridagi g‘ayriilmiy mafkuraviy yondoshuvlarga barham berildi [4]. Zero, xalqimizning boy o‘tmish qadriyatlari kishilarimiz ongi va qalbida milliy g‘oyani shakllantirib, rivojlantirish g‘oyat muhimdir.

Xalqimizning milliy madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarining katta qismini o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan falsafiy meros tashkil qiladi. Falsafiy merosimiz Sharq ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyoti tarixida juda katta o‘rin tutadi. Endilikda ulug‘ ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g‘oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma’naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda.

Umuman, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Tarixiy madaniy meros, odatda, quyidagi uch guruhga bo‘linadi: moddiy madaniyat yodgorliklari; yozma madaniy meros, qo‘lyozma manbalar; nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniyat yodgorliklarining muhim qismini arxeologik yodgorliklar, me’moriy inshootlar va xalq amaliy san’ati, badiiy hunarmandchilik buyumlari tashkil etadi. Xalqning boy va rang-barang nomoddiy madaniy merosi

ISSN 3030-3907

ulug‘ ma’naviyat va ma’rifatga ega bo‘lgan xalqning ajdodlarga qoldirgan bebaho xazinasidir [5]. Milliy qadriyatlar o‘zbek xalqining qadim va asrlar sinovidan o‘tib sayqallanib kelgan bebaho ma’naviy mulkidir.

Nomoddiy madaniy meros odatda quyidagi 6 ta yo‘nalishga bo‘linadi: 1. So‘z san’ati. 2. An’anaviy musiqa. 3. Tomosha san’ati. 4. Raqs san’ati. 5. Milliy hunarmandchilik. 6. Madaniy muhit. Nomoddiy madaniy merosimiz ichida dostonchilik an’analari o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘zbek xalqi dostonchiligining “Alpomish”, “Guro‘g‘li”, “Ravshanoy” va boshqa qator dostonlari xalqimiz ma’naviyati, jasorati, oriyatining betakror madhidir. Ular ichida “Alpomish” dostoni o‘ziga xos o‘rin tutadi. “Alpomish” dostoni vatanparvarlikdan saboq beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari nomoddiy madaniy merosining yana bir nodir namunasi zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi “Avesto” hisoblanadi. Zardusht ta’limoti Markaziy Osiyo xalqlari dunyo tarixida birinchilardan bo‘lib yakkaxudolik e’tiqodiga amal qilganliklarining yorqin ifodasidir. Zardusht Turon qavmlarining ko‘pxudolikka asoslangan e’tiqodlarini bid’at deb e’lon qiladi [6]. Zardushtning yashagan davri va hududi xususida tadqiqotchilar o‘rtasida yagona fikr bo‘lmasada, bu borada ilmiy bahslar davom etayotgan bo‘lsada, biz faxr bilan ezgulikka asoslangan Zardushtiylik ta’limotining merosxo‘rlarimiz deyishga haqlimiz.

Chunki, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da Axuramazda yaratgan o‘lkalar haqidagi tarixiy geografik ma’lumotlar bizga shu huquqni beradi. Undagi ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat g‘oyasi sifatida talqin etish bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan uzviy bog‘liq [7]. Zardushtiylik ta’limoti xalqimiz ma’naviyatining tarixiy ildizlari naqadar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligining yaqqqol isbotidir.

O‘z targ‘ibotini Zardusht (Zaratushtra) she’riy badiha qo‘shiqlar vositasida bayon qilgan. Ular “Gat”lar – qo‘shiqlar (Goh) deb atalgan. Bu she’riy asarlar “Avesto”ning eng qadimiy, izohlanishi murakkab bo‘lgan qismi hisoblanadi [8]. Chunki, Zardusht o‘sha davr voqealarini ishoratlar orqali ifodalaydi. Zardushtiylik dini atrofida birlashgan qadimgi jamiyat uchun tushunarli bo‘lgan bu ishoratlar mazmuni keyinchalik unitilgan.

Ingliz olimasi Meri Boys qadimgi Yunonistondagi Milet maktabi falsafasi “Avesto”, ya’ni zardo‘shtiylik ta’sirida shakllanganligini aytadi. U Ioniyadagi (Qadimgi Yunonistondagi) Milet donishmandlarining falsafiy qarashlariga «ta’sir faqat bir tomonlama, zardo‘shtiylik tomonidan bo‘lgan», [9] deydi. Qadimdan g‘oyalar xalqlarning madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 martdagi qarori [10] bilan Urganch shahrida 2001 yil 3 noyabrda “Avesto” kitobining 2700

ISSN 3030-3907

yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. “Avesto”ga bag‘ishlangan majmua bunyod etildi. Bu yodgorlik madaniy yodgorliklar ro‘yxatiga kiritildi.

Nomoddiy madaniy merosimizning yana bir boqiy namunasi Navro‘z bayramidir. O‘lmas milliy qadriyatlarimiz ichida Navro‘z bayrami muhim o‘rin tutadi. Navro‘z (fors. yangi kun) – Markaziy Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining qadimiy an’anaviy bayramidir. Turkiy xalqlarda bahorgi teng kunlik bayrami “Yilboshi” deb atalgan. Bu bayramning tarixiy ildizlari rivojlangan bronza davriga, sug‘orma dehqonchilik madaniyati shakllangan davrlarga borib taqaladi.

Millatning boy tarixidan ajratib, ming yillar davomida yaratilgan madaniy meros, milliy ma’naviy qadriyatlarni, xususan, adabiyotimiz namunalarini avlodlar hayotidan yo‘qotish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, umuman yo‘qotib bo‘lmaganlarini esa mafkuraviy manfaatlar asosida soxtalashtirish yoki noto‘g‘ri tahlil, talqin qilishlar oqibatida o‘tmish adabiy merosimizning nodir namunalari haqida ko‘p jihatdan soxta, yuzaki, o‘zgacha ruhdagi, ba’zan esa mutlaqo teskari talqin, ta’rif va tasvirlar yuzaga kelib, dunyo fani hamda ijtimoiy fikrida keng tarqaldi.

Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlar millatimizning sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan so‘z san’atkoridir. Ularning ma’naviy merosi chuqur tahlil qilinsa, ularning milliy taraqqiyotimiz uchun ahamiyati ayon bo‘ladi. Xususan, Alisher Navoiyning hayotini, ijodiy merosini, xususan tarixiy asarlarini, qolavrsa u yashagan davrni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini turli mavzular asosida qiyosiy tahlil qilish, xolisona o‘rganish milliy g‘oya targ‘iboti uchun ham zarurdir. Alisher Navoiyning qaysi janrda yozilgan asari bo‘lmasin, mazmun-mohiyatida tarix aks etgandir [11]. Insoniyat, Vatan tarixini mukammal bilish yosh avlod tarbiyasida muhim sanaladi.

Jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug‘, qabila, elat, xalq, millat), ijtimoiy subyektlar qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Jamiyat rivojining muayan davri yoki biror davlatda ham qadriyatlar tizimi o‘sha davr uchun meyor vazifasini bajardi. Qadriyatlarning shakllari umuminsoniy, umumsayyoraviy, umummintaqaviy yoki biror kichik hudud bilan bog‘liq. Shu bilan birga, jamiyatda umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud. Qadriyatlar tarixiy ong shakllanishida muhim element hisoblanadi.

Qadriyatlar – narsa va voqealar, jamiyat, moddiy-ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalovchi tushuncha. G‘arbda qadriyatlarni “Aksiologiya” (“qadriyatshunoslik”) fani o‘rganadi (E.Gartman, P.Lapi). Qadriyatlar axloqiy meyorlar (poklik, ezgulik, vijdon, vatanparvarlik) va ideallardagi baholash mezoni va usullarni ham aks ettiradi. Qadriyatlar – jamiyatda hurmatga ega kishilar, munosabatlar, moddiy-ma’naviy boyliklar majmuasi. Qadriyatlar tushunchasi

ISSN 3030-3907

muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

Qadriyatlar tarix davomida shakllanadi. Taraqqiyot darajasiga ko‘ra uning sifati va miqdori ortishi mumkin. Insoniyat tarixi o‘zi yaratgan qadriyatlar dunyosining boyish va takomillashish tarixidir. Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarning xulq-atvorini tartibga solishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar. Milliy qadriyatlar millatning tarixi va madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixiy meros va qadriyatlar tarixiy ongni shakllantiradi. Tarixiy ongning yuksalishi natijasija milliy ong shakllanadi.

Millat – kishilarnirng barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush va til birligi, madaniyati, ongi va ruhiyatining o‘ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir. Milliy ong – millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e’tiqodi, madaniyati, dunyoqarashi va turli sohalarda faollik darajasi.

Mustaqillikni mustahkamlash va yangi O‘zbekistonni barpo qilish davrida, milliy ong, tarixiy-madaniy merosga va qadriyatlarga tayanib, vatanparvarlik va milliy g‘ururni barchaning qalbiga singdirishda tarixiy tafakkur omilidan foydalanish lozim. Tarixiy ong milliy ongni rivojlantirishda samarali omillardan biridir. Millat o‘z vazifalarini umummilliy g‘oya va mafkura sifatida chuqur anglasa, bu g‘oya va mafkuraning moddiy kuchga, bunyodkorlik omiliga aylanishi samarali bo‘ladi.

Shuning uchun g‘oya va mafkuraning amaliyotini va nazariyasini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi [12]. Milliy taraqqiyot g‘oyalarining nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslash milliy mafkuradagi maqsadlarning to‘la ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g‘oya, milliy ong - milliy an’analar, urf-odatlar va turmush tarzi asosida shakllanadi. Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda, aql-idrok yo‘rig‘i bilan jipslashgan g‘oya milliy mafkuraga aylanadi va millionlab kishilarni ergashtiradi. Shu jihatdan jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ham alohida o‘rin tutadi. Erkinlik, tenglik insoniyatning azaliy qadriyatlari bo‘lib qoldi.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, urf-odat va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan jamiki moddiy-ma’naviy boyliklarini, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Qadimdan bir makonda yashagan xalqlar tarixining, ayniqsa bugungi dunyoviy salohiyat va milliy g‘urur talab etiladigan davrida mintaqaviy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lishni taqazo qilmoqda.

ISSN 3030-3907

Tarixiy-milliy qadriyatlar madaniy-ma’naviy bilimlarni boyitib g‘oyaviy-ma’naviy yuksalishga xizmat qiladi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning faravon, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladi. Qadriyatlar o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasida vorisiylikni ta’minlaydi, unda millat tarixi, o‘tmishi va madaniyati namoyon bo‘ladi.

Davlatchilik tuzuklarining yaratilishi mavjud tarixiy merosning siyosiy madaniyat bilan uyg‘unlashuvida o‘z ifodasini topadi. Masalan, Amir Temurning katta xizmati ajdodlarning axloqiy, tarixiy-madaniy merosiga amal qilishi va uni davlat boshqaruvida tadbiq etishga qodir bo‘lganligi bilan belgilanadi. Ayni paytda, bunday mafkuraning xalq tomonidan idrok etilishi va uni amaliy faoliyatga aylantira olishi edi [13]. Amir Temur davlatchilik siyosatida erishgan yutuqlarining zaminida, avvalo inson manfaatlarining ustuvorligi yotadi.

Xulosa sifatida aytganda, O‘zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [14] qadimiy tariximizni o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o‘z xalqi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish asosida milliy o‘zlikni anglash hissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi.

O‘zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko‘p jihatdan, o‘zbek xalqining ma’naviy-intellektual salohiyatiga bog‘liq. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirishda quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratish lozim:

- milliy g‘oyani rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari va yaratiladigan adabiyotlarda mamlakatning uzoq va boy tarixi, ma’naviy merosini atroflicha tahlil qilish, mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, Vatanga sadoqat, yurtimiz obodligi, xalqimiz farovon turmushini ta’minlash, intellektual imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar, O‘zbekiston rivojlanishi va taraqqiyotini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan davlat dasturlari hamda chora-tadbirlarning mohiyatini yoritish;

- ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining sifati va samaradorligini ta’minlash talablaridan kelib chiqqan holda tegishli vazirlik va idoralar huzurida milliy g‘oya fani bo‘yicha o‘qituvchilar, targ‘ibotchilar hamda soha mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish;

- milliy g‘oyani rivojlantirish bo‘ycha ilmiy izlanishlar olib borish, nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida g‘oyaviy-mafkuraviy mavzularga e’tiborni kuchaytirish;

ISSN 3030-3907

- milliy yuksalish g‘oyasini anglashda va targ‘ib qilishda tarixiy ong va tafakkur omilidan samarali foydalanish lozim.

Yuksalish g‘oyasining tamoyillari taraqqiyot strategiyasining bosh g‘oyasiga asoslanadi, uni fuqarolar qalbiga singdirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.
2. Bolinbrok L. Pisma ob izuchenii istorii i yeye poleznosti. –Moskva, 1978. –S.25.
3. Qo‘chqorov V. Milliy tiklanish va o‘zlikni anglash. –Toshkent, 2004. –B. 22.
